

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
“PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA” FAKUL`TETI
MUSIQA TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI
KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakul'tet dekani
_____ prof. R.Abdurasulov
“_____” _____ 2014 y.

5141000-Musiqiy ta'limiy yo`nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

“Milliy cholg`u sozlarimizning rekonstruksiya qilinishi va ularni
o`quvchilarga tanishtirishning o`ziga xos xususiyatlari ”
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:
Ilmiy raxbar:

Muzaffarova S.
Abduraximov A

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Abduraximov A
(ilmiy rahbar ismi va sharifi)

(imzo)

BMI Musiqa ta'limi nazariyasi va uslubiati
kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror №
) himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri: _____ katta o`qituvchi: X.Omonov

Jizzax – 2014

**A.Qodiriy nomli JDPI Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Muzaffarova Sevaraning "Milliy cholg'u sozlarimizning rekonstruksiya
qilinishi va ularni o'quvchilarga tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari"
mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Haqiqatan ham o'zbek milliy cholg'u sozlari kelib chiqishi, turlari, tovush xosil qilish xususiyati, ya'ni ularning tovush inson ovozigacha yaqin bo'lganligi sababli barcha janrlardagi qo'shiqchilik san'atimiz ularning jo'rligida yanada yoqimli yanada fusunkor, kishi dilini tamoman o'ziga rom qilib olish xususiyatiga ega.

Ushbu BMI bilan tanishib chiqish vaqtida mavzuning milliy cholg'u sozlarimiz tarixi, turlari, tovush xosil qilish xususiyatlari kabi masalalarda chuqur izlanilganligiga guvoh bo'ldim.

Mavzu kirish qismi, ikki bob, olti paragraf, xulosa, mavzuga oid ilovalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuni yoritishdan maqsad uning dolzarb ekanligi, ilmiyligi, tarbiyaviyligi, metodologik asoslari, ob'ekti, predmeti va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

I-BOB uch paragrafdan iborat bo'lib, asosan milliy cholg'u sozlarimiz paydo bo'lishidan to hozirgi davrgacha bosib o'tgan tarixiy yo'li, ularning milliy musiqa madaniyatimiz rivojlanishidagi ahamiyati turli davrlarda yashab o'tgan allomalarimizning ular to'g'risidagi bildirgan fikrlari, halqimiz ma'naviy hayotida ularning o'rni hamda milliy cholg'u sozlarimiz rekonstruksiya qilinish sabablari va oqibatlarini to'g'risida har tomonlama fikr yuritilgan.

II-BOB ham uch paragrafdan iborat va musiqiy ta'limning yurtimizdagi ravnaqi, o'quvchilarga musiqiy ta'lim berish zaruriyati, bu ta'limning barkamol inson tarbiyasidagi o'rni hamda umumta'lim maktablari sharoitida o'quvchilarni milliy cholg'u sozlarimiz bilan tanishtirish, ularning rekonstruksiyadan oldingi va keyingi xolati, yaratilgan yangi cholg'u sozlar ularning orkestr ijrochiligida tutgan o'rni bayon qilingan. Ish oxirida xulosalangan va mavzuga doir ilovalar kiritilgan hamda adabiyotlar ko'rsatilgan.

Mavzuni namunalik yozilgan deb baholayman va himoyaga tavsiya etaman

A.Qodiriy nomli JDPI katta o'qituvchisi:

Nazarov H

**A.Qodiriy nomli JDPI Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Muzaffarova Sevaraning "Milliy cholg'u sozlarimizning rekonstruksiya
qilinishi va ularni o'quvchilarga tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari"
mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Bitiruv malakaviy ishi bilan tanishib chiqdim. Ish kirish qismi, ikki bob, olti paragraf, xulosa, mavzuga oid berilgan ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, milliy cholg'u sozlarimiz to'g'risidagi ma'lumotlarni batafsil reja asosida yoritib berganligi taxsinga sazovordir.

Ishning kirish qismida shu mavzuni yoritishning dolzarb masala ekanligi, mavzuni yoritishdan ko'zda tutilgan maqsad, uning tarbiyaviylik, ilmiylik tomonlari, metodologik asoslari, ob'ekti, predmeti va ahamiyati batafsil ko'rsatib berilgan.

I-BOBda asosan milliy cholg'ularimiz ularning inson hayotida tutgan o'rni, kelib chiqish va takomillashuvi tarixi, milliy musiqa madaniyatimiz rivojidagi o'rni, ular to'g'risida olimlarimiz bildirgan fikr-muloxazalar hamda ularni rekonstruksiya qilishdan ko'zlangan siyosiy maqsad ham ochiq-oydin ko'rsatib o'tilgan.

II-BOBda esa mamlakatimizda musiqa maorifining shakllanish jarayoni, musiqiy ta'limning bola shaxsi shakllanishidagi ahamiyati, ularning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishidagi musiqiy ta'limning ahamiyati milliy cholg'u sozlarimizning rekonstruksiya qilish va undan keyingi xolati bilan o'quvchilarni tanishtirish, Evropa va rus musiqa madaniyatining yurtimiz musiqa madaniyati rivojiga ta'siri to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan.

Ish nihoyasida xulosalangan, mavzuga doir ilovalar berilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatilgan.

Ishni namunali tarzda yozilgan deb baholayman va himoyaga tavsiya etaman.

**Jizzax pedagogika kolleji o'quv
ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari:**

To'xtaev D.O

Mavzu: Milliy cholg‘u sozlarimizning rekonstruksiya qilinish va ularni o‘quvchilarga tanishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

REJA:

Kirish

1BOB. Milliy cholg‘u sozlarimizning kelib chiqish tarixi va takomillashuvi.

1.1.O‘zbek milliy musiqa madaniyati rivojlanishida milliy cholg‘ularimizning tutgan o‘rni.

1.3.Milliy cholg‘u sozlarimizning rekonstruksiya qilinishi ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari.

2.BOB.

2.1.O‘zbekistonda musiqa maorifining rivojlanishi.

2.2.O‘quvchilarni milliy musiqa madaniyatimiz bilan tanishtirish orqali ularni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash.

2.3.Rekonstruksiya qilingan cholg‘u sozlarimizni o‘quvchilarga tanishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Kirish

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, tariximizga, milliyligimizga, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatimiz butkul ijobiy tomonga o'zgarib, endilikda biz o'zligimizni anglash, o'tmishimizni o'rganish sari yuz tutdik.

“Halqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona vatan baxt-soadati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analariga munosib bo'lishimizga erishish, yuksak fazilatli komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish mlliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir!

O'zbek halqi jahon musiqa madaniyati xazinasiga o'zining milliy-musiqiy durdonalari bilan munosib hissa qo'shib kelayotgan o'ziga xos san'atsevar halqdir. Halqimizning jahon musiqa san'at muxlislariga ko'z-ko'z qilishga arzigulik boy musiqa meroslari bo'lib, ular ustoz xofizlar, mutribi sozandalar tomonidan ming yillardan buyon kuylab va sado taratib kelayotgan mumtoz kuy-qo'shiqlar, maqomlar, noyob milliy cholg'u sozlarimiz hamda ularning mohir ijrochilari, bastakorlarimiz tomonidan ijod qilingan o'lmas musiqa asarlarimiz o'zining noyoblighi, melodik va ritmik jixatdan murakkab tuzumiga ega bo'lganligi bilan asrlar osha yashab kelmoqda. Naqadar boy musiqa merosimizning jonli jarayonini belgilovchi muxim omil ham ana shu xonandalik va sozandalik san'atidir.

Musulmon ichra lekin nag'ma ko'p bor

Chunonchi g'ijjaku, tamburu, setor

Dutoru-arg'anun, qonun ila rud,

Rubobu-doira, changu-nayu-ud.

Har bir halqning milliy tili, an'ana va urf-odatlar, jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan xissasi shu halqning ma'naviy salohiyatini belgilagani kabi, musiqa

san'ati merosi ham ma'naviy salohiyati xisoblanadi. SHunday ekan, o'zbek halqi ham jahon fan va madaniyatiga barcha soxalarda o'z ulushini qo'shib kelmoqda. Jumladan musiqa madaniyati sohasida ham juda boy merosiga ega. Bu merosni asrab-avaylash, ularning avlodlari osha yashab qolishini ta'minlash biz hozirgi avlodning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Mana shunday ma'naviy va madaniy merosimizni yoshlarimiz to'liq o'rganmasa, ularni hozirgi zamon nota yozuvida ko'plab nusxada chop etmasak, texnik, texnik vositalar yordamida yozib olinishini ta'minlamasak, o'ylaymanki, ular orasidan bizgacha etib kelgan nodir asarlarning ham saqlanishidan mahrum bo'lamiz, ularni unutib qo'yamiz. Milliy maqom san'atimiz hamda mumtoz kuy va qo'shiqlarimizni yozib olish va nashr etish yo'lida bir qator musiqashunos olimlarimiz, jumladan V.A.Uspenskiy, G'ulom Zafariy, E.Melngeylis, N.N.Mironov, YUnus Rajabiy, Ikrom Akbarov, Matniyoz Yusupov va boshqalar samarali ish olib bordilar. Ularning izlanishlari, tadqiqotlari va mehnatlari natijasida o'n olti jildlik O'zbek halq musiqasi, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari kitoblari nashr etildi. Lekin, bu kitoblarga asrlar davomida to'planib kelgan, boy musiqa merosimiz bo'lgan kuy-qo'shiqlar, termalar, yallalar, laparlar, aytishuvlar, o'lanlar, yor-yorlar, allalar, doston qo'shiqlari, mehnat qoshiqlari va boshqa janrdagi musiqiy asarlarning barchasini jo etib bo'lmaydi. Ular shunchalik ko'pki, yozib olingan musiqiy asarlar dengizdan tomchi xolos.

Milliy cholg'uchilik san'atimiz ko'p asrlardan buyon xonandalik san'ati bilan yonma-yon kamarbasta bo'lib rivojlanib keldiki, hatto ko'p xollarda ularni bir-birisiz tasavvur qilish ham qiyin kechadi. Chunki, tarixan nazar tashlaydigan bo'lsak mohir hofizlar, avvalo mohir sozanda bo'lib, ular o'zlari ijro etadigan musiqiy asarlar va undan tashqari boshqa asarlarga ham cholg'u sozida mohirona jo'r bo'la olganlar. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytishimiz lozimki, milliy-mumtoz qo'shiqchiligimizda eng murakkab va salobatli durdona asarlar xisoblanmish maqomlarimiz va boshqa vazmin yo'lda kuylanuvchi mumtoz ritm va doira usullari jihatidan juda ham murakkab asarlar xisoblanadi.

Bularning orasida maqomlardan talqin, nasr, mo'g'ulcha, suporish, taronala, maqomlardan tashqari mumtoz ashulalar orasidan Giry, Qalandar-1, CHapandagi Gulyor, Kuygay, Bormikan, Judo, Koshki, Hoh inon hoh inonma, Sog'inib kelganman kabi o'nlab asarlar ritmik jixatdan o'ta murakkab bo'lib, agar xonanda cholg'u sozlaridan birini va undan tashqari doira cholg'usini yaxshi ijro eta olmasa, yoki uning ritm (usul) berish xususiyatiga yaxshi tushunmascha, yoxud xis qila bilmasa bunday murakkablikdagi musiqa asarlarini ijro eta olish, ulardan malakali xofizlar chiqishi amri mahol.

Shukrlar bo'lsinki, yurtimizda yashab ijod etgan va shu kunlarda yashab ijod etayotgan hamda o'zlarining istedodi orqali halqimiz yuragidan joy olgan ulug' san'atkor hofizlarimiz cholg'uchilik san'atida ham moxir bo'lib, ijroda yuraklarni sel qiluvchi qiluvchi oxanglar yaratib kelganlar.

O'zbek halqi milliy cholg'u sozlarining turli-tumanligi, ularni ijro etishda cholg'uchining imkoniyati kengligi hamda sadolarning inson ruhiyatiga ta'sir etishi kuchli va yoqimli ekanligi bilan dunyo halqlari orasida oldingi o'rinlarda turadi. Buni shu bilan asoslashimiz mumkinki, yirik qit'a xisoblangan Afrika qit'asida ko'plab mamlakatlar, halqlar bo'lsada, ularda cholg'u sozlarining turlari nixoyatda kam bo'lib, borlari ham asosan ritm beruvchi, urib chalinuvchi cholg'ulardir, melodiya (kuy) chaluvchi cholg'u sozlar esa juda kam bo'lib u ham barcha halqlarga xos emas.

Bundan tashqari Evropa halqlari cholg'u sozlari orasida klavishli cholg'ular bo'lib, bu choldg'ularda yuraklarga orom beruvchi, uni sel qiluvchi nolala, sayqallar berib bo'lmaydi. Bu borada o'zbek halqi bilan hind halqi va Xindu-Xitoy halqlari baxslasha olishi mumkin xolos.

Mana shunday milliy qadriyatlarimizni, ular ijrosidagi sof milliy oxanglarni yosh avlod ongiga singdira borish yoshlarimizni milliy istiqlol g'oyalari ruxida tarbiyalashning hamda ularning kelajakda ma'naviy kamolga etishishlarining asosiy sharti bo'lib xisoblanadi. Hozirgi davrda yosh avlod tarbiyasi ishlarini, uning g'oyaviy mafkuraviy mazmunini belgilashdek muhim va sharaflil vazifani bajarish o'z ixtiyorimizda. Har bir jamiyat taraqqiyotini,

avvalo shu jamiyat fuqarolarining ma'naviy darajasi belgilaydi. Yurtimizning ma'naviy masalaga doir qator asarlari, ma'ruzalari, suhbatlarida aytgan gaplari, eng asosiysi uning "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" nomli asarida bildirgan fikr muloxazalarifikrimiz dalilidir.

Mavzunnig dolzarbligi. O'zligini anglagan inson har togmonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchini teran anglab etgan bo'ladi. Uning uning bunday yuksaklikka ko'tarilishida turli vosita va omillar ishtirok etadi. Bu vosita va omillar uning yuksalishida u, yoki bu darajada o'z ta'sirini qoldiradi. Ana shunday omillardan biri milliy qadriyatlarimizdir. Qadriyatlar esa muayyan halqning turmush tarzi, ijtimoiy taraqqiyoti davrida asrlar bo'ylab shakllana boradi va sayqal topadi. Mana shunday sayqal topgan oliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini, milliy mentalitetini namoyon etadi.

Ma'naviyat tushunchasi singari qadriyat tushunchasi ham keng qamrovli bo'lib, uni har kim o'z nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda turlicha izoxlashi, ta'rif berishi mumkin. Lekin, barcha xollarda qadriyat o'zida ezgu niyatlar, maqsadlar va intilishlarni namoyon etadigan millatning ma'naviy etukligini ko'rsatib turadigan mezon sanaladi. Insoniyat tamadduni taraqqiyot bosqichlarining tajribalarini o'zida mujassam etgan, eng ezgu tuyg'ularga yo'g'rilgan va komillik sari da'vat etuvchi ma'naviy-ruxiy tushunchalar umuinsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.

O'zbek milliy mumtoz musiqa san'ati, maqomlarimiz, milliy cholg'ularimiz, ularning yaratuvchilari va mohir ijrochilari, ular ular rivojlanish tarixiy bosqichlar davomda takomillashuvi, nazariyotchi olimlarimiz, musiqaning nazariy masalalarini taxlil etuvchi ilmiy risolalar hamda ularning mualliflari, bular barchasi buyuk qadriyatlarimiz sanaladi. Bunday qadriyatlarni, ular bilan faxrlanishdek ruxiyatni yosh avlod ongiga singdirish hozirgi davr uchun muxim va dolzarb masaladir.

Mustaqilligimiz sharoitida mamlakatimiz dunyo hamjamiyati tomon yuzini ochdi. Endilikda yoshlarimiz chet ellarda ta'lim olmoqdalar. SHuninigdek, chet ellarda, ayniqsa Evropa mamlakatlarida o'tkazilayotgan

halqaro nufuzli tanlovlarda ishtirok etmoqda va faxrli o‘rinlarni soxibi bo‘lmoqdalar. Bu esa yoshlarimizning tirishqoqligi, harakatchanligi, ya’ni hech kimdan kam emasligidan dalolat beradi.

Buning barchasiga ular uchun yurtimizda yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, qullab-quvvatlantirish, ilxomlantirish va rag‘batlantirishlar orqali erishilmoqda. Bu ishda ustoz-murabbiylarning xizmati ham beqiyos bo‘lib, ular yoshlarga musiqi yilm va ijrochilikdan saboq berishda fidoiylik namunalarini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda musiqiy ta’limning ommaviy tarzda ravnaq topishiga milliy cholg‘u sozlarimizning diatonik parda tuzilishidan xramatik parda tuzilishiga rekonstruksiya qilinishi hamda ularni ijro etishning zamonaviy nota yozuviga moslashtirilish bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Chunki bunday katta ta’mirlangan cholg‘ularda kompozitorlarimiz yaratgan akademik ijro yo‘nalishdagi cholg‘u asboblarini, hatto Evropa kompozitorlarini klassik asarlarini ham ijro etish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari diatonik parda tuzilishda ustozlar bir, ikki shogird tayyorlagan bo‘lsalar, qayta ta’mirlangan cholg‘u sozlarida ko‘plab shogirdlar tayyorlagash imkoniyati paydo bo‘ladi.

YUqoridagi masalalarni ochib berish uchun chuqur yondoshish, mamlakatimizda musiqiy ta’limni yaxshilash orqali avvalo yoshlar ma’naviyati masalasini, qolaversa mamlakatimizning dunyo xamjamiyati oldidagi obro‘cini mavqeining oshishi uchun mavzu moxiiyaini ochib berish mavzusining dolzarbligi xisoblanadi.

Mavzuning maqsadi: o‘z milliy qadriyatlarimizning mazmun moxiiyatini teran anglagan, uni e‘zozlagan asrab avaylagan undan faxrlana oladigan kishi chinakam halqparvar, millatparvar sanaladi.

“Mana shu hayotda yashayotganimiz tinch va osuda hayotimiz, bayramlarimiz, mexrliligimiz, folklorimiz, o‘yinlarimizning barchasi ezgu va azaliy qadriyatlarimizdir”.

I.A.Karimov.

Musiqqa bu madaniyatlilik belgisi bo'lib, jaxolatga qarshi o'tkir quroldir. U bor joydan jaxolat qochadi, ma'rifatga yo'l ochiladi, ya'ni musiqaga oshno bo'lgan qalb ezgulikka moyil bo'lmaydi. Ular teran mushoxada qiluvchi, voqea va xodisalarga xolisona to'g'ri munosabatda bo'luvchi, sofdil, ochiq ko'ngil, mehribon inson bo'lib etishadi.

Evropaning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarida musiqiy tarbiyaga aloxida e'tibor qaratiladi. Har bir ziyoli, ma'rifatli, madaniyatli kishi musiqaning u, yoki bu turi bilan xoxishiga ko'ra shug'ullanishi lozimligi ularda an'ana tusini olgan. Ta'lim tizimidagi musiqiy fanlarni o'qitish uchun ajratilgan o'quv soatlari ham bizning mamlakatimiz maktablariga nisbatan bir necha barobar ortiq bo'lib, shunga qaramasdan ular o'z xonadonlarida farzandlarini qo'shimcha o'qitish uchun maxsus repititor musiqqa o'qituvchisi yollashadi. Odamlar ommaviy ravishda teatr va konsert zallariga to'planib, operalar, operettalar, baletlar, musiqali dramalar, simfoniyalar, konsertlar, kamer orkestri konsertlarini tomosha qiladilar. U mamlakatlarda tez-tez halqaro teatr, simfonik asarlar, xor va boshqa san'at turlaridan festivallar, konkurslar o'tkazib turiladi.

Bizning respublikamiz madaniy hayotiga ham bunday an'analar kirib kelmoqda. Bunga misol qilib har yil respublika miqyosida o'tkaziladigan turli nomdagi ko'rik tanlovlar, "Nihol" mukofoti, "Zulfiya" mukofoti, "Halqaro" teatr festivallari, bundan tashqari har ikki yilda Samarqand shaxrida o'tkaziladigan "SHarq taronalari" festivallarini ko'rsatishimiz mumkin. Bunday ko'rik tanlovlarning tez-tez o'tkazilib turishi, ushbu soxadagi ishlarning yanada jonlanishiga, e'tiborning kuchayishiga olib keladi. Bu esa, musiqiy madaniyatga e'tiborning ijobiy jixatdan olg'a siljiyotganligidan darak beradi. Lekin, mamlakatimiz ta'lim tizimiga kiruvchi o'quv dargohlarida musiqiy ta'limning o'qitilishni Evropaning ilg'or rivojlangan mamlakatlari darajasiga ko'tara olsak, o'ylaymanki, musiqiy madaniyat soxasida bundan ham yuqori natijalarga erishmog'imiz mumkin. mavzumizni har tomonlama asoslangan xolda, ilmiy jixatdan yoritish, bizning mamlakatimiz ham Evropaning rivojlangan mamlakatlari qatori Osiyoda etakchi mamlakatlardan biriga aylanishi uchun

musiqiy madaniyat, ayniqsa, musiqiy ta'lim soxasida jumladan milliy cholg'u sozlarimizni yanada takomillashtirish, yangi-yangi turlarini yaratish, son ketidan quvmasdan sifatli darajada ko'plab nusxalarda ishlab chiqarishni joriy qilish hamda ularni o'rgatish, ya'ni o'qitish ishlarini yaxshilash uchun qilinadigan ishlar to'g'risida izlanish mavzuimizning bosh maqsadidir.

Mavzuning tarbiyaviyligi: ma'lumki, bola tug'ilgandan boshlab, unga ona allasi orqali milliy ruh, milliy ohang, milliy til, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, mardlik va jasurlik kabi millatimiz uchun xos bo'lgan axloqiy sifatlar singdirilib boriladi. Ona o'z allasi ohanglari bilan birga bolaning kelajak istiqboli, sog'-salomat ulg'ayishi, undagi yuksak insoniy fazilatlarining shakllanishi niyat qiladi va chin dildan shunday bo'lishini istaydi. Xuddi shuningdek, vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi ham ona allasidan boshlab shakllana borishi lozim, aks holda bunday tarbiya turlarining bolaga singdirilishida kechikib qolishimiz mumkin.

SHuni aytish kerakki, keyingi sobiq tuzum davrida onalar allasiga ham befarqlik bilan panja orasida qarab kelindi. Unga hatto eskilik sarqiti sifatida qarala boshlandi. Xotin-qizlarimiz o'zlarini zamonaviy ayollar deb xis qila boshladilar. Natijada hatto alla aytishga ma'suliyatsizlik bilan yondoshadigan, umuman alla aytmaydigan onalarimiz safi kengayib ketdi. Bunning natijasida esa, jamiyatimizda xudbin, shaxsiyatparast, molparast, maishatparast va hakozo illatli shaxslar ko'payib ketdi. Ular hatto o'z yurtiga, o'z halqiga, ota-onasiga, qarindosh-urug'iga qarshi qurol ko'tarishdan ha toymadilar. Bunga yaqin o'tmishimizda Toshkent, Andijon, Surxondaryo va boshqa shahar hamda xududlarda sodir bo'lgan voqealarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

“Vatanni sevmok iymondandur”,-deydi payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallalohu alayhu vassalam. Kimningki iymoni butun bo'lsa o'z vatanini begona yotlarga talatib oyoq osti qilinishiga yo'l qo'ymaydi, uni ko'z qorachig'idek asraydi., ulug'laydi va muqaddas deb biladi. Chunki, ona zaminimiz tabarrukdir. U qanchadan-qancha ulug' ajdodlarimizning xokini o'z bag'riga olgan va hozir ham u tirikligimiz manbaidir.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarbiyaviyligi esa, mana shunday buyuk qadriyatlarga, milliy merosga, shu jumladan milliy musiqiy merosga ega bo'lgan, tarixan kelib chiqishi o'ta qadimiy bo'lgan o'zbek halqining jahonda hech bir halqdan kam emasligini uning musiqa madaniyati ham o'ziga xos bo'lib, tuzilishi, ifoda xususiyatlari, inson ruhiyatiga ta'siri, ritmik jixatdan murakkabligi, cholg'u sozlarining xilma-xilligi bilan jaxon musiqa ixlosmandlariga manzur bo'lib kelayotganligini har tomonlama asoslab berish orqali bitiruv malakaviy ishi bilan tanishuvchini o'z halqidan, millatidan, milliy boyliklaridan faxrlanib yurishga va shu orqali ularning qalbida muxabbat, extirom va hurmat xislatlarini uyg'otishdir.

SHuningdek, bitiruv ishida o'zbek milliy cholg'ularining turlari, tuzilishi va ayniqsa, uning moxir ijrochilari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali tanishuvchini avvalo, cholg'u sozlarimiz to'g'risidagi bilim va tasavurlarini boyitish qolaversa uning moxir ijrochilaridan o'rnak olgan xolda bunday cholg'u sozlarini ijro etishga rag'bat uyg'otish, ularni shu ishga yo'llash nazarda tutiladi.

Mavzumizning tarbiyaviyligi yana shundaki, har bir millat haqiqiy millat bo'lib shakllanishi uchun uning har bir a'zosi shu millat ravnaqi uchun fidoyi bo'lishi, uning har bir an'ana va urf-odatlarini, udumlariga to'liq rioya qilish, millatning sha'nini, obro'-e'tibori, nufuzini har qanday xar qanday xolatda kamsitilishi, malomat botqog'iga botishdan asrashi va ximoya qilishi to'g'risidagi prezidentimizning o'gitlaridan kelib chiqqan xolda fikr yuritish lozim bo'ladi.

Mavzuning ilmiyligi: Har bir ijtimoiy tuzum va har bir jamiyatda pedagog murabbiylar oldiga shu ijtimoiy tuzum yoki jamiyat mafkurasidan kelib chiqqan xolda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifasi yuklatiladi. Sobiq tuzum davrida yosh avlodni kommunistik mafkura g'oyalariga sodiq xolda tarbiyalash pedagog murabbiylar oldiga qo'yilgan muhim vazifa bo'lgan bo'lsa, hozirgi mustaqilligimiz sharoitida bu mafkura mamlakatimiz sha'nini ximoya qilish, uning jahon xamjamiyatida nufuzini yanada yuqori ko'tarish, ya'ni

rivojlangan huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadidan kelib chiqqan xolda qabul qilingan milliy istiqlol g'oyalariga sodiq bo'lgan, har tomonlama etuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishdek muxim vazifa qilib pedagog murabbiylar, ustozlar oldiga qo'yildi.

Bu vazifani bajarish esa har bir fan o'qituvchisi, har bir tarbiyachi va ustozlardan avvalo o'z fan soxalarini puxta bilishni, bundan tashqari jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy siyosiy voqea va xodisalardan qabul qilinayotgan farmon va qarorlardan o'z vaqtida xabardor bo'lishi olib borayotgan o'z ish faoliyatlarini shular asosida tashkil qilishini taqozo etadi.

Mavzuni yoritish jarayonida o'zbek milliy cholg'u sozlarining taraqqiyot va takomillashuvi bosqichlarini, ularning rekonstruksiya qilingunga qadar bo'lgan xolatini, rekonstruksiya qilinishi sabablarini, rekonstruksiya jarayonlarini bu ishga bosh qo'shgan musiqashunos olimlarni hamda rekonstruksiyadan keyingi xolatini ilmiy asosda dalil va ma'lumotlarga tayangan xolda yoritib beriladi.

Bundan tashqari milliy cholg'ularimizni rekonstruksiya qilishga majbur qilgan boshqa omillar, jumladan milliy cholg'u sozlari orkestrini tuzish zaruriyati va uning o'ziga xos jixatlari, zamonaviy nota yozuvining mamlakatimiz xududiga kirib kelishi sabablari, undan oldingi yaratilgan sharq nota yozuvi, xorazm nota yozuvidan zamonaviy Evropa nota yozuviga o'girilishi, O'zbekistonda musiqa maorifining paydo bo'lishi, Oliy va O'rta musiqiy ta'lim beruvchi o'quv yurtlar, musiqiy ta'limni auditoriyada berishning joriy qilinishi, orkestrlar turlari, tuzilishi va ularni boshqarish va boshqa shu kabi masalalarni tadqiq qilinishiga ilmiy ravishda yondoshiladi.

SHuningdek har bir turdagi milliy cholg'u sozlarimizning rekonstruksiya qilish jarayonida kiritilgan o'zgarishlar, paydo bo'lgan qulayliklari, yaratilgan yangi-yangi nusxalari, ularni ijro etish uslublari, cholg'u sozlar diapazoni, akustikasi masalalarini ham ilmiy asosda misollar va dalillar keltirgan xolda yoritib berish mavzuning ilmiyligi xisoblanadi.

Mavzuning metodologik asoslari: O'zbek milliy cholg'u sozlarining paydo bo'lishi va takomillashuvi hamda uning ijrochiligida nom chiqargan moxir sozandalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosan tarixiy adabiyotlardan jumladan Ahmad Odilovning o'zbek milliy cholg'ularida ijrochilik tarixi, Anvar Leviev O'zbek milliy cholg'u asboblari, H.Hamidovning O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi, Ashot Petrosyan cholg'ushunoslik va boshqa adabiyotlar bergan ma'lumotlar asosida va unga tayangan xolda o'z fikr muloxazalarimizni bayon etamiz.

Bundan tashqari o'zbek milliy cholg'u sozlarini o'quvchilarga o'rgatish metod va uslublari, texnologiyalarini tadqiq qilish jarayonida milliy cholg'ularimizni o'rgatish bo'yicha ishlab chiqilgan darsliklar, qo'llanmalar, tavsiyanomalar, nazariy bilim beruvchi adabiyotlarga tayangan xolda o'quvchilarga samarali bilim berishning metod va usullarini hamda texnologiyalarini ko'rsatib o'tishga, ular to'g'risida o'z fikr va muloxazalarimizni bildirishga harakat qilamiz.

Mavzuning metodologik asoslarini albatta shu mavzu bo'yicha bildirilgan fikr va muloxazalar, shu fikr va muloxazalarni asoslab berish uchun adabiyotlardan keltirilgan dalillar xamda olib borilgan tajriba-sinov ishlari, ular bergan natijalar, natijalarni taxlil qilish va umumiy echim, ya'ni xulosga kelish tashkil qiladi.

Mavzuning predmeti: mavzuning predmeti musiqiy ta'lim bo'lsada, uning mazmunini o'zbek milliy cholg'u sozlari, ularning paydo bo'lishi va takomillashish tarixi, cholg'u turlari va ularning xarakteristikasi, moxir ijrochilari, jamoa ijrochiligi, ya'ni ansambllar, orkestrlar, ularning turlari, musiqiy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, musiqiy o'quv yurtlar uni o'qitishning ijtimoiy zaruriyati, o'qitishga qo'yilgan talablar va boshqalar tashkil qiladi.

Musiqiy ta'limning yurtimizda paydo bo'lishi davridan to hozirgi davrigacha bosib o'tgan yo'li, unda yuz bergan o'zgarishlar, zamonaviy nota yozuvining yurtimizda joriy qilinishi, ustoz shogird an'analaridan, ustoz va

shogirdlar ya'ni, ommaviy musiqiy ta'limga o'tilishi hamda ta'limdagi bunday o'zgarishlar berayotgan samaralar, yaratilgan ilg'or ish uslublari, joriy qilinayotgan yangi pedagogik texnologiyalar talqini ham mavzuning predmeti sanaladi.

Mavzuning ob'ekti: Har bir mavzu mazmunida bildirilgan fikr muloxazalar asosan adabiyotlardan keltirilgan dalillarga xamda olib borilgan tajriba sinov ishlari natijalari asosida isbotlab beriladi. Demak, har bir mavzuning olib boradigan tajriba sinov ishlari uchun ob'ekti, ya'ni joy, maydon kerak bo'ladi.

Ushbu mavzuning ob'ekti qilib biz umuta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari hamda yuqori 5-sinfinitanladik. Chunki umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati dars soatlari bo'yicha yillik, choraklik mavzular belgilangan bo'lib ular qo'yidagicha rejalashtirilgan.

1-sinf yil mavzusi "Biz musiqani sevamiz", deb nomlangan.

I-chorak "Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar"

II-chorak "Musiqali o'yinlar va qo'shiqlar"

III-chorak "Xushnavo cholg'ularimiz"

IV-chorak "Xushnavo cholg'ularimiz"

2-sinf yil mavzusi "Ijrochilik turlari", deb nomlangan

I-chorak "YAkkanavozlik, jo'rnavozlik, jo'rsozlik"

II-chorak "CHolg'ular vaxonandalar dastalari

III-chorak "Dasta turlari, Kuy nima?"

IV-chorak "Musiqaning ifoda vositalari"

3-sinf yil mavzusi "Musiqaning ifoda vositalari", deb nomlangan

I-chorak "Musiqa nutqi"

II-chorak "Xor va orkestr

III-chorak "Musiqaning ichki tuzilishi"

IV-chorak "Oddiy musiqa shakllari"

4-sinf yil mavzusi "O'zbek halq musiqa ijodi" deb nomlangan

I-chorak "Halq aytimlari va cholg'ulari"

II-chorak “Bayram va marosim qo‘shiqlari

III-chorak “Mavsum qo‘shiqlari

IV-chorak “Bahor fasli qo‘shiqlari”

5-sinf yil mavzusi “Kompozitorlik musiqa janri”

I-chorak “O‘zbek halq cholg‘ulari orkestri. Xor san’ati”

II-chorak “Simfonik orkestr. Musiqada vokal-simfonik janr”

III-chorak “Sahnaviy musiqa asarlari”

IV-chorak “Opera san’ati. O‘zbek musiqasida opera janri”

YUqoridagilardan ko‘rinib turibdiki biz tanlagan mavzu umumta’lim maktablarining 1-2-3-4-5 sinflari o‘quv dasturida berilgan mavzularga mos keladi va shu sababli ular bizning mavzumiz ob’ekti bo‘lib qoladi.

Mavzuning ahamiyati: Mavzumiz cholg‘u sozlarining kelib chiqishi tarixini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarimizni, milliy-musiqiy merosimizni, o‘z yurt, vatan tarixini o‘rganish va shu orqali komillik sari yo‘l tutishning o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy tomonlarini ochib berish, milliy cholg‘u sozlarimizni imkon qadar ilmiy asosda ta’riflash, davrlar osha ularni ijro etib el-yurt o‘rtasida shuxrat qozongan ajdodlarimiz bo‘lmish buyuk sozandalar bilan o‘quvchini tanishtirish kabi muxim masalada ish olib borganligi bilan ahamiyatlidir.

SHuningdek, mavzumizning mazmuniga milliy cholg‘u sozlarimizning turlari, ularda ijro etishning o‘ziga xos xususiyatlari, asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy cholg‘u sozlarini o‘rganishdagi ustoz-shogirdlik an’analari badiiy-estetik tarbiya va uning manaviy barkamol insonni tarbiyalashdagi roli, makta musiqa madaniyati darslarida milliy cholg‘u sozlaridan foydalanishning ko‘rgazmalilik xususiyati kabi xozirgi zamon ta’limi, xususan musiqiy ta’lim muammolarini ko‘tarib chiqish va bu muammolarni hal qilishning zamonga mos bo‘lgan oqilona yo‘l-yo‘riqlarini ochib berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Bundn tashqari milliy cholg‘u sozlarimizning dastlabki xolati, ularni rekonstruksiya qilishga bo‘lgan zaruriyat, rekonstruksiya qilish natijasida ro‘y

bergan o'zgarishlar, xramatizm, nota yozuvi, uning paydo bo'lishi va takomillashuvi, O'zbekistonga Evropa musiqa madaniyatining kirib kelishi, uning ijobiy va salbiy jixatlari, O'zbekistonda musiqa maorifining shakllanishi va taraqqiyoti kabi masalalarda, keng ko'lamli ish olib borilganligi hamda o'quvchi boy ilmiy musiqiy ma'lumotlar berishi bilan ham ahamiyatlidir.

SHu bilan birga xozirgi davrda musiqa ijrochiligida mavjud bo'lgan va qo'llanilayotgan rubob va uning rekonstruksiya dan keyin yaratilgan yangi turlari dutor, g'ijjak, qo'biz, chang sozalri va ularning yangi yaratilgan turlari, nay, surnay, karnay, bulamon, doira, nog'ora, safoil, tanbur, sato, ud, qonun, sibizg'a kabi cholg'u sozlarining tuzilishi ijro etish xususiyatlarini, akustika yoki sadolanishi, diapazoni, ularni ijro etib el-yurtimizda nom taratgan moxir ijrochilar to'g'risida imkon qadar to'liq ma'lumot berish bilan ham mavzumiz ahamiyatlidir.

1-BOB. 1.1. Milliy cholg‘u sozlarimizning kelib chiqish tarixi va takomillashuvi

Fanning bergan ma'lumotlariga qaraganda musiqa san'atining paydo bo'lish davri insoniyat taraqqiyotining ilk davri bo'lgan ibtidoiy jamoa tuzumi davriga, ya'ni insonni olovni kashf qilgan davrlariga borib taqaladi. U davrlarda paydo bo'lgan musiqiy ko'rinishlarini xatto musiqa deb atash qiyin edi. Buni shunday tavsiflash mumkinki, insoniyat olovni kashf qilgungacha bo'lgan davrda yovvoyi turmush darajasida, ya'ni uchragan xayvonlarni tosh, tayoq kabi qurollar yordamida ovlaganlar va xuddi yovvoyi yirtqich xayvonlar kabi ovqatlanaganlar. Olov kashf qilingandan so'ng esa, o'rta gulxan yoqib davra qurib o'tirganlar va ovlagan xayvonlirin o'tda pishirib eganlar. Tabiiyki, tamaddi qilib bo'lganlaridan so'ng xursand bo'lganlar va xursandchiliklarinichapak chalish bilan yoki tosh otish bilan tayoqni toshga urish bilan ifodalashlari esa, kelgusida cholg'u sozlarining paydo bo'lishiga asos solgan deyiladi.

Milliy cholg'u sozlarimiz paydo bo'lish davrining qadimiy ekanligi to'g'risida fikrimizga qadimiy tarixiy yozma manbalarimiz berayotgan ilmiy ma'lumotlar vatopilayotgan arxeologik topilmalarni ilmiy jixatdan taxlil qilish natijasida bildirilayotgan ilmiy xulosalar asos bo'la oladi.

YUnon tarixchi olimlari Kurs Ruf, Gerodot, Demokrit va boshqalarning Aleksandr Makedonskiy davri tarixiga oid asarlarida berilgan tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha yunonlar (ellinlar) O'rta Osiyoni zabt etgan chog'da "So'g'diylar", Baqrotida qolganlar. Ularning mashshoq va xonandalar ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiq va kuylarini yuksak ijrochining musiqiy madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u sozlarimiz Evropa halqlari musiqa madaniyatida qo'llanilib, yangi ko'rinish (shakl va yangi nomda Evropa bo'ylab tarqalgan). Masalan: Ud-lyutiya, arg'anun-arfa, dutor-tutor yoki gitar-gitara va hokazo.

Qadimgi ajdodlarimiz Navro'z, Mexrjon va xosil bayramlarini nishonlaganlar va bu bayramlarda sozandalar cholg'u sozlarida kuy chalganlar,

xonandalar cholgʻu joʻrligida qoʻshiq kuylaganlar, raqs ustalari esa oʻz sanʼatlarini namoyish etganlar. Xatto eramizdan oldingi VI –V asrlar hayti toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi zardushtiylik dininig muqaddas kitobi boʻlmish Avestoning ham maʼlum qismi qoʻshiq qilib kuylash uchun moslashtirilib, barmoq vaznida sheʼr shaklida yozilgan.

Keyingi yillarda halqimiz musiqa madaniyati tarixi juda xam qadimiy ekanligini isbotlovchi ayrim ashyoviy dalillar uchrayotganligi ushbu masalaga doir ilmiy tasavvurlarimizni biroz boʻlsada boyitib va oʻzgartirib bormoqda. CHunonchi arxeolog olimlar Samarqand viloyati Urgut tumanining Moʻminobod qishlogʻi yaqinidagi turli xil taqinchoqlar orasidan topilgan gʻaroyib bir nay sozini ana shunday ashyoviy dalillar sirasiga kiritish mumkin. Mutaxassislarning fikricha bu musiqiy soz bronza davriga oiddir. Yoshi salkam besh ming yillik deb baxolangan bu nay yaxlit suyakdan nixoyatda moxirlik bilan ishlangan boʻlib juda yaxshi saqlangan. Mazkur topilmailmiy jixatdan juda xam qimmatbaxo boʻlib hozir u Samarqand shaxridagi Respublika madaniyat va sanʼat muzeyida saqlanmoqda.

Pravda Vostoka 1967 yil 24 sentyabr.

Yuqorida nomi qayd etilgan arxeologik topilma Zarafshon vodiysida yashagan ajdodlarimiz boʻlmish qadimgi qabilalar oʻsha davrlarda ham umuman musiqa snʼati ularning ijtimoiy madaniy haytida tarkibiy qismlardan biri boʻlganligidan darak beradi. Yurtimizning qator xududlarida olib borilgan arxeologik qidiru ishlari bu erda moddiy va maʼnaviy madaniyatning ildizlari juda chuqur ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, Ayritomdan topilgan scharoy peshtoqida ikki xajvchining rol ijro etayotganligi va ularning yonidagi umumiy dastada bir nechta ayol tasviri aks etgan boʻlib, ulraning ikkitasi cholgʻulik bilan asosan ayollar mashgʻul boʻlganligini koʻrsatadi, erkak sozandalar esa turli hayvonlar qiyofasida xajvgga olingan.

Oʻrta Osiyo halqlari orasida ud sozi qadimdan juda keng tarqalgan va ommalashib ketgan. Bu cholgʻunnig tasviri ayniqsa, Xolchayondagi topilgan xaykalchalarda uy joy peshtoqlaridagi naqsh va xoshiyalarda koʻp uchraydi.

Olimlarning ilmiy xulosalariga ko'ra ud sozi O'rta Osiyoning eng qadimiy musiqa sozlaridan biri bo'lib, keyinchalik u boshqa ko'plab mamlakatlar jumladan Evropa san'atiga kirib borgan. Bu borada ud soziga urib chalinadigan cholg'ular xamda puflab chalinadigan cholg'ulardan nay, sibizg'alar raqobat qilish mumkin.

SHu o'rinda qadimgi Xorazm yurti xam madaniyat va san'at o'choqlaridan biri bo'lganligi eramizdan oldingi 6-5 asrlarda Xorazmning davlat sifatida taraqqiy etganligi xozirgi davrda bu xudduda olib borilayotgan arxeologik tadqiqot ishlari, izlanishlari, natijasi juda boy ilmiy samara berayotganligini aloxida ta'kidlash lozim. Xususan Qo'yqirilgan qal'adan topilgan sopol idishlar va ulaning siniqlari eramizdan oldingi 6-5 asrlarda gurkirab rivojlangan Xorazm o'lkasiga xos bo'lib ularda xordiq chiqarayotgan shoh va uning orqa tomonida burchakli chang sozi, musiqachining mazkur cholg'u torlaridan barmoqlari yaqqol ko'rinib turibdi.

Demak, O'rta Osiyonnig qadimgi cholg'u sozlarini shartli ravishda uch guruhga zarbli (urib chalinuvchi cholg'ular) puflama va torli cholg'u sozlariga bo'lsak to'g'ri bo'ladi. Hozirgacha dunyoning turli xududlaridan topilgan arfa cholg'usining beshtasi (3 tasi burchakli va 2 tasi yoysimon) O'rta Osiyo halqlariga tegishli ekanligi mutaxassislar tomonidan isbotlab berildi. jumladan eramizdan avvalgi 4-3 asrlarga doir to'qqiz torli burchaksimon arfa Xorazmning Qo'yqirilgan qal'asidan topilgan va sopolga burtma naqsh tarzida ishlangan. Tuproqqal'a xarobalaridan topilgan olti va to'qqiz torli arfa chalayotgan ayollarning devorga ishlangan rasmi xam bu cholg'u sozining vatani O'rta Osiyo ekanligidan dalolat beradi.

Kushonlar saltanati davrida (eramizning 2-3 asrlarida) yirik shaxarlarida musiqa cholg'u sozlaridan keng foydalanilgan. Podshoh va amaldorlarning tantanali yurishlari hamda qozonilgan g'alaba bayramlari musiqa cholg'ulari va qo'shiqlarsiz o'tmagan. Bu davrda professional musiqa qo'shiqchilikning murakkab shakllari shakllana boshlagan, ya'ni maqomlar shakllana boshlagan. CHolg'u sozlarini chalishdagi o'zaro jo'rlik uning xozirgi ansambl shakliga

o'xshashligi paydo bo'la boshlagan. Saroy musiqachilari va qo'shiqchilarining o'rtasida ijodiy raqobat paydo bo'lib, ular o'z mehnatiga kasb sifatida qaray boshlashi natijasida ularning ma'lum kuy va qo'shiq repertuari shakllana boshlagan. Bu davrga oid topilmalarda cholg'u sozlaridan ud, qo'shnog'ora, arfa (egik turi), do'mbira, nay, likopcha va boshqa cholg'ular tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu davr O'rta Osiyo halqlari milliy musiqa madaniyatining qay darajada rivojlanganligini yurtimizning Marv shaxridan etishib chiqqan uch buk san'atkor, Noqus (549-632), Romtin (556-620) va Borbad Marvaziy (588-630) larning moxir cholg'uchi xofiz va bastakor bo'lganligi to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar asosida bilishimiz mumkin. Ular o'sha davr sosniylar sulolasi sardori bo'lgan eron shoxi Xusrav Parviz -2 saroyida xizmat qilganlar va chang ud sozini chalishda xofizlikda xamda bastakorlikda mashxur bo'lganlar.

Milliy cholg'u sozlarimiz yaratilishi va takomillashishining ikkinchi davri arab istilosidan mo'g'ul istilosiga bo'lgan (9-12 asrlar) uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Bu davrga mufassal to'xtalishimizning boisi O'rta Osiyoning jaxonga tanilgan buyuk zotlari shu davrda yashab o'tganligidir. Buyuk mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniy va tarixchi olim Narshaxiylarning ko'rsatishlaricha arab istilochilari halqimizga ham moddiy ham ma'naviy jixatdan katta zarar etkazganlar. Maxalliy xokimiyat tugatildi, shaxarlar, qadimgi madaniy yodgorliklar, mavjud yozuvlar, kitoblar yondirildi, muxtasham me'moriy va san'at namunalari vyron qilindi. Qachonki, 9-asr yarmiga kelib, avval Toxiriylar so'ngra Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshoxlar davlatlari vujudga klgach jaroxatlar asta-sekin bita boshladi va mamlakat yuksalish sari yuz tutdi. Bu davrga oid manbalarda cholg'u sozlarining o'sha davr uchun eng mashxuri ud sozi bo'lganligi qayd qilinadi. Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino mana shu davrda yashab ijod etgan buyuk olimlar ichida musiqaning nazariy tamoyillarini o'sha davr cholg'u sozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan ilmiy musiqiy asarlar yozganligi va bu risolalarda nazariy bilimlar, jumladan tovushlar balandligi, tovushlar oralig'i va

tovushqatorlar to'g'risida xamda musiqaaning asosiy elementi bo'lgan ritm to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni ud sozining torlari va pardalariga asoslangan xolda yaratganligi bizga ma'lum.

Farobiy va ibn Sino asarlari sharqda musiqashunoslik ilmining muxim tarkibiy qismi sifatida musiqiy cholg'ushunoslik faniga asos solganliga va ayni paytda bu fan Evropada ancha kech paydo bo'lganligini ta'kidlash joizdir.

Musiqiy cholg'ushunoslik ilmining dastlab O'rta Osiyoda xususan O'zbekistonda paydo bo'lganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Zero bizdagi musiqa cholg'u sozlarining turli-tumanligi, qo'shiqchilik san'atidagi rang-baranglik, dastali ijro va o'yinlarning ko'xna tarixi va an'analari bularning barchasi o'lkamiz musiqa san'ati nazariyasi va amaliyoti Yunoniston va O'rta Asr Evropasidan ancha qadimiyroq ekanligiga ishoradir.

Somoniylar davrida Buxorodagi saroylarda professional musiqachilarning katta gurxlari faoliyat ko'rsatgan bu gurhu a'zolari o'z san'atining moxir ustalari bo'lib, butun bir musiqiy maktablarni yaratishgan. O'sha davr san'atkorlariga ko'rsatgan xizmatlari uchun yuksak unvon "Mutribi Movaraunnaxr" unvoni berilgan. SHunday yuksak unvon olgan sozandalardan biri IX-X asrlarda yashab ijod etgan moxir cholg'uchi va xofiz Abu Bakr Rubobiy bo'lgan (o'sha davrlarda cholg'uchi sozandalarga ijro etgan cholg'u sozining nomi taxallus qilib berilgan bo'lib demak Abubakr Rubobiy rubob cholg'usining moxir ijrochisi Abu Abdullox Rudakiy esa rud sozining moxir ijrochisi bo'lgan deyish mumkin) edi. U xorazmshox saroyida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, keyinchalik Buxoro shaxriga kelgan va maxsus musiqa o'qitish maktabini ochga xamda uni o'qitish uchun qo'llanmalar yozgan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarda mashxur fors-tojik shoiri Abu Abdullox Rudakiy mana shu maktabda cholg'uchilik ilmidan saboq olgan.

Manbalarda keltirilishicha bu davrda cholg'u sozlaridan barbat, rud, tanbur, qo'buzz, rubob, nay, karnay, surnay, tabl, daf, taburoq, zir, chag'ana, shaynur, arg'anun, qonun kabi xilma-xil cholg'u sozlari bo'lib takomillasha borgan. CHunonchi Rudakiyning zamondoshi Abu Xifz So'g'diy changga

monand “Shoxrud” nomli torli cholg‘u sozi yaratgan. Bunda ycholg‘u sozlarning ayrimlari bo‘lib o‘tgan mo‘g‘ul istilosi natijasida yo‘qolib ketgan. O‘sha davrda Buxorodan Xurosonga borib qolagn qochoqlardan biri shunday degan edi. “Omadand va kunand, sutand va kushtand, burdand va riftand (keldilar-va emirdilar, yondirdilar va o‘ldirdilar, taladilar va ketdilar)”.

O‘rta Osiy Amir Temur xokimiyati ostida birlashtirilib o‘lkadan mo‘g‘ullar quvilib chiqarilgach bu erda madaniyat va san‘at yana qaytadan gullab-yashnagan. O‘sha davr saroy tarixchilari bo‘lgan SHarofiddin Ali YAzdiy va Ibn Arabshoxning asarlarida bo‘ to‘g‘risida batafsil yozilgan bo‘lib, jumladan mashxur san‘atkorlar, benazir mutrib va musiqachi Abdulqodir Marog‘iy, uning o‘g‘li Safiuddin, kuyovi Nosriyn xamda ardasher al-CHangiylar haqida xikoya qilinadi. SHuningdek ular tabrizdagi Temurning o‘g‘li SHoxrux Mirzo xuzurida bo‘lgan mashxur musiqachi Qutb al-Mavsimiy haqida batafsil xikoya qilib uning maqomlarga bag‘ishlangan tasniflarini u bilan Abdulqodir Marog‘iy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan baxslarni qayd etganlar.

Temur o‘zi egallagan xududlardan chunonchi Xuroson, Eron va Suriyadan ko‘plab san‘atkorlarni Samarqandga keltirgan. Manbalarda keltirilishicha o‘sha davrda dabdabali saroy marosimlari musiqa va qo‘shiqlar jo‘rligida o‘tkazilgan. Bunday marosimlarda xushovoz xofizlar va shirinnavoz sozandalar fors musiqasi arab va turk oxanglari mo‘g‘ul ovozlari xamda boshqa milliy musiqa o‘lchovlari asosida kuy chalib qo‘shiq aytar ekanlar.

Manbalarda o‘sha davr saroy musiqachilari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bo‘lib, ularning ijro maxorati xolisona ta’riflangan. Masalan: O‘sha davrda Samarqandda Sulton Ahmad devona nomli naychi bo‘lib, u nay chalganda o‘likka jon kirib ketar edi, deb ta’riflanadi.

Ko‘plab saroy musiqachilari jumladan Mavlono Darvesh Buzgala, Mir Xokiy, Pirmuxammad Kulol, Ustod To‘laq Noyiy, Abdusattor Qonuniy, Arab Navo Qobuziy, Maxzumzoda Kotibiy, Maxzumzoda Xorazmiylar, shuningdek bunday moxir musiqachilar orasida Xojai Jafariy Qonuniy nomi ham tilgan olingan.

Musiqachi olim Abdulqodir Marog‘iyning musiqa soxasidagi tadqiqotlari buyuk shoir Abduraxmon Jomiyning musiqaga oid risola yaratishi uchun asos bo‘lgan. Uning “Risolai dar ilmi musiqiy” nomli asari jamoatchilik o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otdi. Bu risolada musiqaga nazariy tavsif berilgan bo‘lib, uning kirish qismida musiqa san‘atining katta psixologik ruxiy ahamiyati tinglovchilarda qayg‘u va quvonch jo‘shqinlik va umid xayajon kabi kayfiyatlar xosil qila olishi aytilgan. Jomiy bu asarida o‘z davrining professional musiqachilari orasida tarqalgan va umumiy musiqa sabog‘i sanalgan 19 ta jo‘r ritm, yoki ritmik doiralarni sanab o‘tadi. Risolaning xotima qismida esa, muayyan pardalarning tinglovchilarga ta’siri haqida so‘z yuritib ularni to‘rt toifaga ajratadi.

1. SHijoat va jasurilk uyg‘otuvchi oxanglar.
2. Xursandlik va quvonch xissini uyg‘otuvchi oxanglar.
3. Qayg‘u va mung uyg‘otuvchi oxanglar.
4. G‘am va ma’yuslik uyg‘otuvchi oxanglar.

Jomiy va A.Navoiy yashagan o‘sha davrda Xurosonda professional musiqachilarning katta guruxi faoliyat ko‘rsatgan. Ular orasida Qul Muxammad, SHayx Noyiyi, Xusayn Udiy, SHayx Qo‘qiylar o‘sha davr Xurosonining mashxur va atoqli sozandalari edilar. O‘sha davrdagi musiqashunos olim Zaynulobiddin Xusayniy A.Navoiyning topshirig‘i bilan “Qonuni ilmiy va amaliy musiqi” nomli asarini yozdi. Asar 24 bobdan iborat bo‘lib birinchi Navoiyga bag‘ishlab qasida, shuningdek nag‘ma (musiqa tovushi), bu‘d (interval), jam‘ (tovushqator) lahn (kuy) larga ta’rif bergan va musiqa so‘zining kelib chiqishi haqida fikr yuritgan.

Baland-pastligi jixatidan muayyan bir doirada sadolanib turadigan tovush na‘madir. Ikki nag‘ma bir bu’dni ikkidan ortiq bu’dlar birkmasi jam‘larni tashkil etadi. U kuy qo‘shiq ma’nolarida kelib, ma’lum tartibda tuzilgan yoqimli tuyuladigan tovushqatorlar pardalarini ham lahn de ta’riflaydi. Cholg‘u kuylar, qo‘shiqlar va xatto she’rlarni vazn hamda oxangga solib o‘qish ham alxon tushunchasiga kiradi. Musiqa iborasi esa yunoncha so‘z bo‘lib kuy va qo‘shiq

ma'nosini bildiradi. Xusayniyning risolasida Temuriylardan so'ng ichki nizolar sababli O'rta Osiyo xududi uchta mustaqil xonlikka bo'linib ketdi va bu XIX-asr oxirlariga davom etdi ichki nizolarning kuchayishi va bir-biriga dushmanlik kayfiyatining ustuvorligi natijasida shoir Nodirabegim, Amiriy, Uvaysiy va boshqa ma'rifatparvar kishilar bu nizolar qurboni bo'ldilar. Temuriylar davridagi jadal rivojlanish bir qadar susaydi. Endilikda uch xonlik saroylarida mustaqil ravishda profesional musiqa rivojlana boshladi. qo'qon xoni saroyida shakllana boshlagan Farg'ona Toshkent chormaqomi fikrimiz dalilidir. Shunga qaramay bu davrda xam Najmiddin Kavkabiy, Darveshali Changiy kabi mashxur olilar etishib chiqqanligini bilamiz.

XIX-asrda esa, Xorazm musiqa madaniyati tarixida katta burilish yasalganligi bilan ta'riflanadi. CHunonchi Xivada Paxlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy) boshchiligida musiqachi va xofizlarning yirik guruxi paydo bo'ldi. U tanbur uchun maxsus nota yozuvi yaratdi. Uning o'g'li Muxammad rasul Mirzaboshi esa Xorazm olti yarim maqomini tshliq o'rganib, otasi yaratgan nota yozuvida qog'ozga tushurdi va kitob xolida xukmdor Muxammad Raximxon Feruzga taqdim etdi.

Bu davrda halq cholg'u sozlarida ijrochilik sozlarida ijrochilik madaniyati o'z kamolotiga etdi. Musiqa cholg'ulari ijrochilari o'z maxoratlarini takomillashtirish bilan birga o'zlari xam musiqa asarlari yaratganlar. Moxir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulamon, doira va boshqa cholg'u ijrochilari sozandalikdan tashqari moxir xonanda xam bo'lganlar. O'zlari dastalar tuzishgan, shuningdek ijrochilik xam rivojlangan.

1.2.O‘zbek milliy musiqa madaniyati rivojlanishida milliy cholg‘u sozlarining tutgan o‘rni.

Yuqorida kshrib o‘tganimizdek o‘zbek halqining musiqa madaniyati tarixi juda ko‘xna va qadimiydir. Ushbu madaniyatining ibtidoiy boshlang‘ich shaklidan to xozirgi taraqqiy etgan davrigacha o‘sib ulg‘ayib janrlar turi bo‘yicha kengayib va boyib etib kelishida milliy cholg‘u sozlarimizning o‘rni beqiyos katta va bu madaniyatini cholg‘u sozlarimiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Agar cholg‘u sozlarini bo‘lmaganida edi, ashula va qo‘shiqlarimiz raqslariimiz bu qadar ta’sirchan va kishiga zavq beruvchi hamda undan ma’naviy ozuqa olish imkoni bo‘lmas, shu sababli musiqa madaniyatimiz taraqqiy etmas va ibtidoiy ko‘rinishdagi xoxlagan balandlikda yoki tondagi baqir chaqirlardan iborat bo‘lgan bo‘lar edi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida cholg‘u sozlarimiz turlarining ko‘paya boriishi bilan ularning musiqa asari mazmunini ifodalashdagi imkoniyatlari ham kengaya borgan. Aks xolda musiqa asarini ijro etish uchun bir yoki ikki cholg‘u sozi etarli bo‘lar edi. Masalan: Burg‘u cholg‘u sozi xarbiylarni safga turish yoki jang boshlagan chorlagan bo‘lsa, Dovul gunoxkorni qatl qilish jarayonida vaxima uyg‘otish xukmron doiralar tazyiqidan qo‘rqish o‘zining xam boshiga shunday xolat tushib qolishdan xushyor bo‘lish kabi kayfiyatlar uyg‘otgan. Saroyning muxim tadbirlari boshlanishidan avval yoki elchilarni kutib olish jarayonida yoxud tuy-tomoshalar boshlanishida xursandchilik ramzi sifatida karnay, surnay, nog‘ora va doira sozlaridan foydalanishgan. Dam olish, xordiq chiqarish vaqtlarida esa ta’blariga ko‘ra kimdir tanbur, kimdir dutor, kimdir chang, kimdir rubob va xakozo cholg‘ular ijrosida musiqa va qoo‘shiqlar tinglaganlar. Manbalarda aytilishcha uyg‘onish davri bo‘lmish IX-XII asrlarda cholg‘u ijrochiligi va xonandalik nixoyatda rivojlanib professional musiqachilar soni oshib ketgan va ular saroylarga sig‘may qolganlar. Saroylardagi musiqachilar va xofizlarning moddiy axvoli va turmush sharoiti saroy tashqarisidagi musiqachilarga nisatan ancha yaxshi bo‘lganligi sabali, musiqachilar o‘rtasida raqobat kuchayib ketgan. Natijada musiqachilar bevosita

halqning tuy-tomoshalarida oilaviy yigʻinlarida ishtirok etib oʻz sanʼatlarini namoyish qilganlar. Halqning ularni kerak boʻlgan vaqtda osonroq topishi uchun musiqachilar jam boʻlib oʻtirishgan, yaʼni sozandalar maxallasi, xofizlar maxallasi kabi koʻcha va maxallalarga jam boʻlganlar.

Musika ijrochiligining inson hayotidagi muxim oʻrni toʻgʻrisida koʻplab adabiyotlarda misollar keltirilgan. Haqiqatan ham insonning hayotida uning ulgʻayishi va shaxs sifatida shakllanib borishida musiqiy tarbiyaning roli benixoyat katta boʻlib, u inson tugʻilganidan yaʼni goʻdaklik davrida aytiladigan ona allasidan tortib to umrining oxirgi kunlarigacha inson bilan yonma-yon shodligu-xursandchilik qaygʻu va alam xamda osoyishta damlarini xam inson musika bilan baxam koʻradi.

Agar inson xayoti xomila davridan boshlansa musika xam unga taʼsir koʻrsatishni oʻsha davrdan boshlaydi yaʼni u insonning asablarini tinchlantiradi, unga orom bagʻishlaydi, xordigʻini chiqaradi. Bu esa onadan bolaga bevosita oʻtadi va u xomilaning sogʻ-salomat rivojlanishi uchun muximdir. Shunday ekan musiqiy tarbiyaning davridan boshlanadi deyishga asosimiz bor. Demak, onaning asablari qanchalik tinch osoyishta va koʻtarinki kayfiyatda boʻlsa, tugʻiladigan farzand ham shu darajada sogʻlom va asablari mustaxkam boʻlib tugʻiladi.

Rivoyat qilishlaricha qadim zamonlarda bir mamlakat podshoxinnig farzandi yoʻq ekan. U oʻzidan keyin qoladigan merosxoʻrining yoʻqligidan xamda mamlakatning oʻzidan keyingi taqdiridan qattiq qaygʻurar ekan. Lekin, uning oqil va dono vaziri bor ekan. Kunlar oʻtib bir kuni vafot etgan kuni tugʻilgan mamlakatdagi barcha bolalarni bir joyga yigʻishni buyuribdi. Buyruq bajarilgach barcha goʻdaklarni bir xonaga yotqizishibdi. Bayonlar esa vazirnnig bu ishidan gʻoyat taajublanib boshlaganidan soʻng bir xazin kuy chalishni buyuribdi. Bayonlarga esa musiqani tinglagandan soʻng birinchi boʻlib yigʻidan toʻxtagan bolani aniqlab berishni buyuribdi. Bolalar ochiqqanlaridan soʻng yigʻlashga tushibdilar. Mashshoqlar kuy chalishni boshlabdilar. Bayonlar yigʻidan birinchi boʻlib toʻxtagan bolani aniqlabdi va vazirga keltirib berishibdi.

Vazir shu go‘dakni qo‘liga olib mana shu bola mamlakatga podshox bo‘lishini aytibdi. “CHunki, -debdi vazir musiqa sadolarini xis qilgan qalb yomonlikka” moyil bo‘lmaydi. Bu boladan kelajakda insonlarni sevadigan, mexr-muruvvatli podshox etishadi.

Garchi bu rivoyat bo‘lsada haqiqatdan yiroq emas, chunki musiqa inson kayfiyatiga kuchli ta’sir etadi. Uni ko‘taradi va mexr-muruvvatga ezgulikka moyil qiladi. Agar tariximizga nazar tashlasak ajdodlarimiz bo‘lmish buyuk allomalar va mamlakat xukmdorlari xam musiqani nixoyatda sevgan ilmiy musiqiy risolalar yozgan va musiqa asarlari bastalaganlar. Bunga misol qilib Muso al-Xorazmiy (780-850) mafotixul-ulum (ilmlar kaliti) Abu nasr-Farobiy (873-950) kitobul musiqiy al Kabir (musiqa haqida katta kitob) “Kalomil fil musiqiy ” (musiqa haqida so‘z), Abu Ali ibn Sino (980-1037) “Kitob ush-shifo ” (shifo kitobi) “Donishnoma”, “Risolatun ilmi musiqiy va boshqa” asarlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari Ibn Arabshoxning “Muxit at tavarix” asarida Shox Mirzo Ulug‘bekning (1394-1449) musiqada bir necha usullar yaratganligini “Bilujiy” , “Shodiyona”, “Ahloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli ravon”, “Usuli baxri” kabi musiqa asar ijod qilganligini aytib o‘tiladi. Boburnomada esa xazrat Navoiyning (1441-1501) musiqada bir necha usullar yaratganligi, naqshlar va peshravlar yaratganligi aytib o‘tilgan.

Devanzadaning Xorazm musiqasi asarida shoh Muxammad Raximxon Feruzning moxir tanburchi va xofiz ekanligi Xorazm maqomlarini to‘liq bilishi va ijro eta olishi xamda bu maqomlarga 13 ta muxammas, bog‘lagani bundan tashqari Xorazmning mumtoz ashulalariga aylanib ketgan Feruz –I-II-III asarlariga musiqa bastalaganligi, shoir sifatida esa she’riy devoni mavjud ekanligi to‘g‘risida yozilgan. Bunday dalillar keltirib o‘tilgan rivoyatning hayotga naqadar yaqinligidan dalolat beradi.

YUqorida aytib o‘tganimizdek o‘zbek milliy musiqa madaniyatining boy xazinasini va unda to‘plangan musiqa merosimiz cholg‘u sozlarimiz sabablidir. Zero bu cholg‘ular ko‘p ming yillar davomida halqimizga ma’naviy ozuqa berib, ularning badiiy-estetik didlari shakllanishiga omil bo‘lib keldi. Cholg‘u

sozlarimiz halqimizning bayram sayllari to'y-tomoshalari va boshqa xursandchilik kunlarida boshlariga qayg'u qo'shganda dalda bo'ldi. Mehnatdan, turmush mashaqqatlaridan toliqqan davrlarida ularga xordiq va orom bag'ishladi.

Cholg'u sozlarimiz tarixini o'rganish jarayonida to 20-asrga qadar ularni uch asosiy guruxga bo'linganligini, ya'ni urib chalinuvchi puflab chalinuvchi xamda tirnab chalinuvchi turlari mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda. Urib chalinuvchi cholg'u turlariga dovul, nog'ora, doira, daf, tabl, safoil, qayroq, zang kabi cholg'ular kirsas, tirnab chalinuvchilar turiga ud, rud, tanbur, dutor, rubob, qonun kabi cholg'ular puflab chalinuvchilar turiga esa nay, sibizg'a, qo'shnay, surnay, bulamon, karnay kabi cholg'ular kirishi bizga ma'lum. Bundan tashqari kamonga orqali chalinuvchi g'ijjak va qo'buz sozlari tarixi xam oldingi guruxlar cholg'u sozlari tarixidan ko'xna bo'lishi mumkin.

Lekin, shunday cholg'ular ular ko'rinishi jixatidan bir turga mansub bo'lsada, ijro jixatidan boshqa turga mansubdir. Masalan: Chang cholg'u sozi ko'rinishidan torli tirnab chalinuvchi cholg'ularga mansub bo'lsada, ijro jixatidan tayoqcha bilan urib chalinishi sababli urib chalinuvchi cholg'ular guruxiga mansubdir.

Torli cholg'ularning ba'zilar kamoncha bilan ba'zilar barmoqqa qiyiluvchi noxun bilan ba'zilar mediator bilan ba'zilar esa tayoqcha bilan urib chalinishini nazarda tutsak tirnab chalinuvchi cholg'ularni umumlashtirib torli cholg'ular deya atash maqsadga muvofiqdir.

Yana shuni aytib o'tish kerakki, manbalarda bir qator cholg'u sozlari nomi eltirilgan bo'lib, ular arg'anun, ko's, chag'ana, shaynur, likopcha, zir, taburoq, kabi cholg'ulardir. Lekin, afsuski bu cholg'ular tuzilishi tovush chiqarish xususiyati shakli va ijro uslubi to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz. Bu cholg'ularning nomlari asosan uyg'onish davri 9-12 asrlarga oid manbalarda uchraydi. Keyingi Temuriylar davriga oid yozma manbalarda negadir bu cholg'u sozlarining nomlarini uchratmaymiz. Xozirgi yoki uyg'onish davridan keyingi yozma manbalarda uchramayotgan cholg'u sozlari tarkibiga

rud va shoxrud nomli cholg'ularini xam kiritish mumkin. Ularning nomlari uyg'onish davri cholg'u sozlari to'g'risidagi manbalarda keltirilgan.

Shuningdek qadimiy cholg'u sozlarimizdan biri dutor cholg'u sozi to'g'risidagi ma'lumotlar negadir uyg'onish davri va undan oldingi davrlarga oid ma'lumotlarda ya'ni yozma tarixiy manbalarda uchramaydi. U to'g'ridagi ma'lumotlar faqat Temuriylar davriga oid yozma manbalardagina mavjud. Fikrimizcha yo dutor cholg'usi haqiqatan ham Temuriylar davridan oldingi davrda mavjud bo'lmagan, yoki boshqa biror nom bilan atalgan bo'lishi mumkin. To'g'risini aytganda bunday noaniqliklar anglashilmovchiliklar va tushunmovchiliklarning boisi tarix silsilasi davomida yuz bergan bosqinchilik yurishlar bo'lib, ularning natijasida yozma tarixiy manbalarning yo'q qilinish yoki tashib ketilishdir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan xonliklar davrida milliy musiqa madaniyatimizdagi foydalanilayotgan cholg'u sozlar safidan chiqib ketgan ud va qonun sozlari yana yurtimiz musiqa madaniyatini boyita boshladi. bundan tashqari mustaqilligimiz arafasida yaratilgan "Manzur" nomli torli cholg'u xamda "Bobur g'ijjagi" ning tiklanishi ham cholg'u sozlarimiz safini va imkoniyatini kengaytirdi. Balki yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek uyg'onish davrlarida nomlari ma'lum bo'lib, o'zlari to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan cholg'u sozlar yana qaytadan tiklanar va yana boshqa yangi-yangi cholg'u sozlar yaratilar.

Shu o'rinda milliy cholg'u sozlari qo'shni halqlarimiz bo'lgan qozoq va qirg'iz halq cholg'ulari bilan unchalik mushtarak bo'lmasada, O'rtaOsiyoning qolgan halqlari tojik, turkman, uyg'ur, qoraqalpoq halqlari, shuningdek Eron, Afg'on va arab millatiga mansub halqlar cholg'u sozlari bilan nixoyatda uyg'undir. Balki, shu sababli bu halqlar musiqa madaniyati jumladan qo'shiqchilik va cholg'uchilik san'ati bir-biriga nixoyatda yaqindir.

Uyg'onish davriga oid yozma manbalarda xikoya qilinishicha Ibn Sarix Makkiy bir ovozni tarkib qilmoqchi bo'lsa egniga qo'ng'iroqchalar osilgan bir kiyimni kiyar ekan, qo'ng'iroqchalardan chiqqan sado uning o'zi aytgan

qo‘shiqlarining oxangiga muvofiq kelar ekan. SHu vaqtda Ibn Sarix qo‘l oyoq va gavdasini ma’lum bir xarakatga keltirib, qo‘ng‘iroqchalar tovushini oxangga sola boshlar ekan. Uning qo‘shiq kamolga etgan bo‘lar ekan va u qo‘shiq kuylab boshlar ekan.

SHu o‘rinda tarjimayi xoli yaxshi o‘rganilmagan shoir Axmadiyning “Sozlar munozarasi” asari muxim axamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz joizdir. SHoir bu asarda tanbur, ud, chang, qo‘biz, yotug‘on, rubob va kungura obrazlarini yaratib o‘sha davrlarda saroy amaldorlari orasida avj olib ketgan g‘iybatchilik, maqtonchoqlik, bir-biriga bo‘xton yog‘dirish g‘arazgo‘ylik, fitna-fasad va dushmanlanish illatlarini fosh etadi. Agar cholg‘u sozlari o‘rniga shoxni qo‘yib ko‘rsak, majoziy ma’no tagiga yashiringan sir-asrorlardan ogox bo‘lamiz.

Asarda keltirilishicha Piri Xarobotiy navbatdagi bazmi jamshiddan birida mast bo‘lib, davrani boshqara olmay uxlab qolgach cholg‘u sozlari o‘rtasida kelishtirib bo‘lmavydigan baxs-munozara va ziddiyatlar klib chiqadi. SHoir bunday manzarani mavjud xayotda shoxona ziyofatlarda saroy ayonlari orasida birinchi bor kuzatgan bo‘lishi mumkin. Asarda Piri Xarobotiy kayfi tarqalib fitnachi tanburni jazolab ziddiyatli to‘qnashuvga barxam berganidek shox xam mamlakatda fitna urug‘i sochilishga yo‘l bermasligi ketak degan ibratli g‘oya targ‘ib qilingan.

Yuqoridagi misoldan ayon bo‘lishicha ajdodlarimiz har bir milliy cholg‘u sozimizning tovush xosil qilish xususiyatlarini va ularning cholg‘u ansabmlidagi o‘rnini aniq bilganlar va to‘g‘ri baxolaganlar. Xaqiqatdan xam cholg‘u sozlar ansambli tarkibidagi xar bir cholg‘uning o‘ziga xos tovush xosil qilish xususiyati bo‘lib, ular tinglovchida turlicha kayfiyatlar xosil qiladi. Masalan: Chang sozining tovushi quloqqa qattiq va keskin eshitiladi va kishida qandaydir ko‘tarinki kayfiyat xursandchilik aralash g‘ururlanish va xayajonga yaqin tuyg‘ular uyg‘otadi. Dutorning tovushi esa aksincha quloqqa past va mayin eshitilib tinglovchida ma’yuslik aralash xazinlik osoyishtalik va g‘amginlik yaqin tug‘ular xosil qiladi. Qolgan cholg‘u sozlar mana shu inson

xissiyotlaridagi qarama-qarshi qutblarning yo u tomonga, yo bu tomonga yaqin kayfiyat uygʻotish xususiyatiga ega.

Sozandalar ansambli ijro etadigan musiqiy asarlar ijrosini ansambl tarkibidagi sozandalardan shu musiqiy asarni eng yaxshi va toʻliq biladigan sozanda boshqaradi. Bunda boshqaruvchi sozanda ijro etadigan cholgʻu sozining tovushi tembr jixatdan baland boʻlishi va ijrochisini ritmik jixatdan doira chalgʻuvchi sozanda boshqaradi. U faqatgina musiqa asarini doira usulini bir maromda asar xarakteriga koʻra saqlash bilan bir vaqtda musiqiy asar tezligi va dinamikasini xam boshqarib boradi.

Demak, milliy cholgʻu sozlarimiz halqimizning milliy boyligi boʻlib, ularsiz milliy musiqa madaniyatimiz ravnaqini tasavvur etib boʻlmaydi. Ularning turi va soni qanchalik koʻpaysauni oʻrganishga va bu cholgʻular ijrosidagi musiqiy asarlarni tinglashga boʻlgan talab kuchaya boradi. Musiqa asarining yoqimli va mazmunli eshitilishida bosh omil ijro maxorati boʻlsada, cholgʻu sozlarining sifati xam rol oʻynaydi. Fabrikada son ketidan quvish natijasida ishlab chiqarilgan sifatsiz cholgʻu sozlar avvalo oʻrganuvchining shu cholgʻuni oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqini soʻndiradi. Qolaversa uning ijrosidagi musiqa asari xam quloqqa yoqimli eshitilmaydi.

1.3. Milliy cholg‘u sozlarimiz rekonstruksiya qilinishining ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari.

O‘zbek halqi tarixiy o‘tmishi davomida ko‘p jangu-jdallarni istilo va bosqinlarni boshdan kechirdi. Lekin, shunga qaramay uning ruxi sinmadi va aksincha rivojlanishda davom etdi. Halqimizda “bir kun janjal bo‘lgan ro‘zg‘ordan qirq kun baraka ketadi”, degan naql bor va bu bejiz emas. Agar biz jamiyatni oilaga, ro‘zg‘orga qiyoslaydigan bo‘lsak bo‘lib o‘tgan bosqinchilik urushlari, o‘zaro ichki nizolar natijasida yuz bergan urushlar jamiyatga qay darajada moddiy va ma‘naviy zarar etkazganligini xam tasavvur qilishimiz mumkin.

19-asr 70-yillarida yuz bergan rus istilosi va uning keltirib chiqargan oqibatlarini, mamlakatga etkazgan moddiy va ma‘naviy zararlari haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin, tarixan yuz bergan istilolarining keltirib chiqargan moddiy va ma‘naviy zararidan tashqari ayrim jixatdan ularning ijobiy tomoni xam ko‘zga tashlanadi. Ammo bu istilochilik siyosatini xech qachon oqlamaydi. Agar biz dunyo mamlakatlarining jaxon xamjamiyati yoki jaxon halqlari nazaridan mavqeiga nazar tashlaydigan bo‘lsak barcha mamlakatlarning taraqqiyoti bir xilda emasligini bilib olishimiz mumkin. Bu borada xozir dunyoda AQSH va Rossiya gegasmonlik qilsada, bir qator evropa mamlakatlari xamda Osiyo qit‘asidan Xitoy va YAponiya peshqadam ekanligini bilamiz. Bundan misol keltirishimizning boisi O‘rta Osiyoni dastlab greklar (eramizdan oldingi 3-asr), so‘ngra arablar (705 yil) keyin esa mo‘g‘ullar (1218 yil) va nixoyat ruslar (1870 yil) istilo qilganligi va vayronagarchilik xamda talonchilikda ular barchasida emasligini aytish edi. Istilolar ichida mo‘g‘ul istilosi eng ko‘p vayronagarchilik va ofat keltirgan bo‘lsa uning ijobiy tomonini deyarli sezmaymiz xam.

Faqat shuni aytishimiz mumkinki, rus istilosi bilan uning etkazgan barcha moddiy ma‘naviy zararlari to‘kilgan qonlari bilan birga yurtimizga Evropa madaniyati shu jumladan musiqa madaniyati jumladan Evropa nota yozuvi teatr san’ati musiqa maorifi orkestr va xor san’ati va xakozo kirib keldi.

Ayniqsa, sobiq tuzum davrida ruslashtirish siyosati boshlangach Evropa madaniyati yurtimizga zo‘r berib joriy qilindi. Yurtimizda opera va balet teatrlari musiqali drama teatrlari, bolalar uchun qo‘g‘irchoq teatrlari, tele-radio komitetlari, bularning barchasidan ko‘zlangan maqsad halqning o‘zligini unuttirish va asta sekin ruslashtirish siyosati edi.

Bunga yaqin o‘tmishimizdan ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: Halqning milliy ma‘naviyatiga ta’sir etuvchi barcha senzura nazoratida edi, jumladan ishlab chiqariladigan xujjatli va badiiy, tarixiy filmlar, badiiy va ommabop adabiyotlari, dissertatsiyalar, muxim xujjatlar avval rus tilida yozilib so‘ngra o‘zbek tiliga tarjima qilinar teleradio eshittirishlar, spektakllar, qo‘shiqlar kommunistik mafkuraga xizmat qilishi uni ulug‘lash, ko‘klarga ko‘tarish lozim edi. Buni boshqaruv tizimida xam ko‘rishimiz mumkin, ya’ni respublika, viloyatlar, tumanlar, shaxarlar raxbarlarining ikkinchi shaxsi albatta rus zabon kishi bo‘lishi va barcha olib borilayotgan ishlarni nazoratida tutishi lozim edi.

Mavzudan kelib chiqqan xolda biz sobiq tuzumga nisbatan gina qilmoqchi emas, balki milliy cholg‘u sozlarimizni rekonstruksiya qilishdan maqsad, musiqa ijrochiligimizdagi milliy diatonik yo‘nalishdan xramatizmga yakka ovozli milliy ijromizdan ko‘p ovozli Evropa ijro uslubiga va shu bilan asta sekin cholg‘u sozlarimiz o‘rnini Evropa cholg‘u sozlariga bo‘shatib berish edi. Ular bu bilan millatimiz madaniyatining ming yillik tomirlariga bolta urib, o‘zlarining madaniyatiga bizni tobe ya’ni qul qilmoqchi edi va ular ko‘zlangan maqsadlariga qisman erishdi desak xato bo‘lmaydi. Bunga xozirgi estrada san’atimiz va unda foydalanayotgan cholg‘u sozlari yoshlarimiz ma‘naviyatini tobora band etayotganligi, bo‘yniga gitara osib yurgan yigit-qizlarimiz paydo bo‘layotganligidan bilsak bo‘ladi.

E’tibor berib qarasangiz rekonstruksiya natijasida ishlab chiqarilgan yangi cholg‘u sozlar jumladan, g‘ijjak, bas, g‘ijjak kontrabas, qo‘buz kontrabas, rubob prima, rubob metssosaprona, rubob alt, dutor prima, dutor sekunda, dutor bas, chang bas kabilardan faqatgina orkestr ijrochiligida foydalanish mumkin,

shunda xam ular orkestr uchun zarur bo'lgan musiqiy salobatni bera olmaydi. ularning birortasidan milliy cholg'u sozlari ansambli ijrochiligida foydalanish qiyin va u kerakli musiqiy ifodani berishga qodir emas. shu sababli bu cholg'u sozlaridan tashkil qilingan sozandalar ansambli amaliyotida mavjud emas.

“Sir emaski, xar qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va er usti tabiiy boyliklari bilan, xarbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan balki, birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun Chor Rossiyasining Turkistondagigeneral gubernatori M.Skobelevning qo'yidagi so'zlari mahzini chaqish kifoya qiladi.” Millatni yo'q qilish uchun uni qirib shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilin yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi. Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izox berib o'tirshiga xojat yo'q, lekin undan kerakli xuloslar chiqarish, saboq olish uchun bugun xam kech emas.

I.A.Karimov.

Qadimdan to'y-marakasi bir bo'lgan, bir-birinikiga borib kelib turgan axil-inoq bo'lgan, urf-odatlari, an'analari deyarli bir xil bo'lgan, bir-biridan qiz olib qiz bergan quda anda bo'lgan o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman halqlarini bo'lib tashlashdan, kerak bo'lsa ular o'rtasiga nizo urug'larini (O'sh voqealari) solishdan ko'zlangan maqsad zamirida yuqorida aytganimizdek shovinizm yotadi. Baxtimizga prezidentimiz ko'rgan oqilona chora tadbirlari natijasida ko'pgina ko'ngilsizliklar, nizola (1991-1992 yillar xamda 2010-yildagi O'sh voqealari, 1989-90 yillar mesxeti turklari bilan yuz bergan voqealar) ijobiy tomonga tinch yo'l bilan xal qilindi. Lekin, xali xam o'zlarining g'arazli maqsadlariga etish umididan voz kechmagan kuchlar atrofimizda, xatto mamlakatimiz ichkarisida xam topiladi. Bunga mustaqillik davrimizda Toshkent, Andijon, Buxor, Surxon vodiysidagi voqealar guvohlik berib turibdi.

Mana bizga vatanparvarlik tarbiyasi nima uchun kerak? Biz o'sib kelayotgan yosh avlodimiz ongiga o'z vataniga o'z halqiga va uning milliy

madaniy boyliklariga o‘z ona tuprog‘iga muxabbat va sadoqat ruxini sindira olmas ekanmiz, bunday ko‘ngilsizliklar yana takrorlanmasligiga kafolat berib bo‘lmaydi.

Kommunistik mafkuraning barchadan sir saqlagan xolda amalga oshirgan “Bo‘lib tashla va xukmronlik qil” g‘oyasi aynan bizning O‘rta Osiyo va Kavkazda amalga oshirilgan edi. Mustaqilligimizga 20 yildan oshgan bo‘lsada xalqimiz sobiq tuzum mafkurasi ta’siridan batamom qutilib ketolgan emas, ayrimlari xam o‘sha aqidalar ta’sirida yashayaptilar. Uning unutilishi uchun esa xali ancha vaqt va saboq kerak bo‘ladi.

Milliy cholg‘u sozlarimizni rekonstruksiya qilishdan ko‘zlangan ob’ektiv va sub’ektiv sabablar mavjud. Uninng ob’ektiv sababi milliy cholg‘u sozlarimizning inson qalbini sexrlovchi fusunkor sadolar taratishi, uni insonlar jon qulog‘i bilan tinglashi va barchani maftun etuvchi jozibasini yo‘qqa chiqarish orqali ularga bo‘lgan mexrni so‘ndirish va shu orqali xosil bo‘lgan bo‘shliqni Evropa cholg‘ulari orqali to‘ldirish, ya’ni halqni o‘z milliy musiqa san’atidan bora-bora sovutib borish bo‘lsa, sub’ektiv sababi Evropa nota yozuviga ularni moslashtirish orqali milliy cholg‘ularda Evropa va rus musiqalari ijrochiligin o‘rgatish xamda millatdoshlarimiz vositasida ularni halq ichida targ‘ib qilish edi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ular bu masalada maqsadlariga qisman bo‘lsada erishdi. Millatdosh musiqachilarimiz o‘quv yurtlarida milliy cholg‘u sozlarini o‘rganish bo‘yicha saboq olsalarda, ular o‘qish jarayonida asosan Evropa va rus kompozitorlari asarlarini o‘rganganlar.

“Shu bilan birga, eski tuzum davrida bu o‘quv dargoxining faoliyati xam o‘ta mafkuraviy asosda, bir yoqlama tashkil etilganligini bugun taaasuf bilan eslaymiz.uzoq yillar davomida bu erda milliy musiqa san’atiga e’tibor berilmagani, xatto jaxon musiqa madaniyatining eng nodir namunalaridan bo‘lmish maqom san’atiga xam bepisandlikbilan qaralgani, uni o‘rganish va targ‘ib etish masalasi 70-yillardagina, shunda xam halqaro musiqa

jamoatchiligining ta'siri ostida yo'lga qo'yilgan, o'ylaymanki ko'p narsani anglaydi."

**I.A.Karimov (Toshkent Davlat konservatoriyasi
yangi binosi ochilishida so'zlagan nutqi. 23 mart 2002 yil)**

Yuqorida aytilgan gaplar ayni haqiqiy bo'lib, respublikamizdagi barcha musiqiy ta'lim beruvchi o'quv dargoxlari (musiqi bilim yurtlari, madaniy oqartuv texnikumlari, musiqi maktablari, Gler nomli va Uspenskiy nomli maktab internatlari va xakozo) da axvol shu darajada edi. SHukrki mustaqilligimizdan so'ng o'zligimizga va milliyligimizga bir oz bo'lsada qaytdik. Endilikda bu o'quv dargoxlarida Evropa musiqi san'ati bilan bir qatorda o'z milliy musiqi san'atimizni yosh avlodga o'rgatib borish ustida ancha ishlar qilindi.

Biz farzandlarimizning Evropa mamlakatlarida bo'lib o'tayotgan turli nomlardagi ko'rik tanlovlarda g'olib chiqayotganligi va faxrli o'rinlarni egallayotganligidan albatta quvonamiz. Lekin, o'zimizning mamlakatimizda milliy cholg'u sozlarimiz yoki milliy kuylarimizning xalqaro ko'rik tanlovlarini xech bo'lmaganda mamlakatimiz miqyosida shunday ko'rik tanlov tashkil qilish unda ijro etiladigan musiqi asarlarining milliyligi xamda milliy ijro uslublari bo'lmish musiqiy bezaklarimizdan kerakli joyida foydalana olishiga ko'ra yoshlarimizning iqtidorini baxolash va ularni rag'batlantirish to'g'risida xozirgacha o'ylab ko'rmadik.

Yoshlarimizninn o'z ijrochilik maxorati va iqtidorlari bilan Evropa halqlari musiqi ixlosmandlarini qoyil qoldirayotganligi albatta quvonarli xol ammo ular bilan o'zligimizdan milliy musiqalarimiz ijrochiligidan chetlab ketish evaziga emas, balki ular avval o'z musiqiy merosimizga mansub bo'lgan asarlar ijrosi bilan yurtimizda g'oliblikni qo'lga kiritgan, so'ngra boshqa ellar, halqlar musiqasini ijro etishga qo'l urgani yanada yaxshiroq va samaraliroq bo'lar edi. Chunki biz haqiqatan xam buyuk ajdodlarimiz vorislari ekanmiz, xech kimdan kam emasmiz.

Shu o'rinda milliy cholg'u sozlarimizning hozirgi sifat darajasidagi xolatga razm solish va xolisona fikr bildirish lozim. To'g'risini aytganda ular restavratsiya qilingandan so'ng bir oz sifat o'zgarishiga erishdi. Buni milliy cholg'ularimiz bo'lmish rubob, dutor, tanbur kabi cholg'ularning xozirig xolati ko'rsatib turibdi. Ochig'ini aytganda joylardagi kasanachi ustalar yasayotgan bunday cholg'u sozlar Toshkentdagi cholg'u sozlari ishlab chiqaruvchi fabrika tomonidan ishlab chiqilgan cholg'u sozlariga nisbatan ancha qulay va sifatli. SHu sababli ustalar yasagan cholg'u sozlarini ijro etishda qiyinchilik ko'p uchramaydi va talabalar, o'quvchilar ularni qo'ldan qo'ymay chalishga intiladilar. Korxonada ishlab chiqarilgan cholg'u sozlari esa ancha g'aliz bo'lib sadolanishi yoqimsiz, ijro etishda noqulaylik tomonlari juda ko'p. Shu sababli ularni o'rganuvchi yoshlar majbur bo'lganlaridagina mashq qilish maqsadida chaladilar. Konsertlar yoki boshqa ommaviy musiqiy tadbirlarda bu cholg'ulardan foydalanishni ma'qul ko'rmaydilar.

2.BOB.2.1.O‘zbekistonda musiqa maorifi rivojlanishi.

Yurtimizda musiqiy ta’lim tarixi juda qadimiy bo‘lib uyg‘onish davriga qadar u yakka tartibda ustoz-shogird an’alariga asoslangan xolda olib borilgan. Buni biz ko‘xna musiqa sn’atimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li, ayniqsa maqomlarimizning bizgacha etib kelgan asarlarining murakkablik darajasidan bilsak bo‘ladi. Bundan tashqari yozma tarixiy manbalar bo‘lmish yunon, arab tarixchi olimlarning yozib qoldirgan asarlari xam shuni ko‘rsatadi.

Musiqiy ta’limning bunday yakka tartibda olib borilishiga o‘sha davrlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy tuzum quldorlik va feodal munosabatlar sabab bo‘lgan deyishimiz mumkin. Chunki ilk o‘rta asrlarda maktab tizimi uni o‘qitishning xozirgidek ish rejalari va dasturlari bo‘lmagan. Ota-ona o‘z farzandini o‘zi xoxlagan soxa bo‘yicha, o‘zi xoxlagan kishiga shogirdlikka berganligi to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar mavjud. Bu manbalardan ma’lum bo‘lishicha yurtimizning ijtimoiy madaniy xayotda uyg‘onish davri o‘ziga xos o‘rin tutib, 9-10 asrlarda O‘rta Osiyoda musiqa madaniyati juda xam gullab yashnaganligini, o‘sha davrlarda halqimiz orasidan buyuk mutafakkir olimlar etishib chiqqanligi va ular musiqiy ilm bo‘yicha xam izlanishlar olib borganligi o‘sha davrda musiqiy ilm matematika ilmining uzviy bir ajralmas qismi deb qaralganligi, shuningdek o‘sha davrlarda mashxur sozanda va xofizlar faoliyat ko‘rsatganligi, xatto ular uchun “mutribi Movaraunnaxr” faxriy unvoni joriy qilinganligi xamda moxir sozanda va xofizlar bunday unvonlarga sazovor bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Shunday unvon soxibi Abu Bakr Rubobiyning Buxoroda musiqamaktabi ochilganligi, unda o‘qitish uchun qo‘llanmalar yozganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yurtimizda musiqa maorifining tashkil bo‘lishi tarixi ancha qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Afsuski asrlar silsilasi va vayronagarchilik keltiruvchi urushlar, o‘zaro ichki nizolar va boshqa sabablar orqali yurtimiz tarixiga oid ma’lumotlar kam saqlanib qolgan.

Mana shu ma'lumotlarga tayangan xolda biz musiqiy ta'limning ustoz shogird an'alaridan tashqari fan fan sifatida o'qitilishi (xatto u yakka tartibda bo'lsa xam) uyg'onish davridan boshlangan deyishimiz mumkin.

Keyingi Temuriylar davriga oid tarixiy manbalarda musiqiy ta'limning fan sifatida maktablarida yoki madrasalarda o'qitilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi. Bundan o'sha davrda musiqiy ta'lim qadimiy an'ana bo'lgan ustoz shogirdlik uslubiga o'tgan deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Aks xolda Temur va temuriylar saroyida bo'lgan musiqiy ijodiy muxit bunchalik yuqori saviyada bo'lmas va asrlar davomida shakllanib kelayotgan "Duvozdox" (o'n ikki) maqom to'lishib o'z kamolotining yuqori cho'qqisiga chiqmagan bo'lar edi.

Keyingi xonliklar davri to'g'risida xam shunday deyish mumkin. Garchand mamlakatimiz uchvta mustaqil xonlikka bo'linib ketgan bo'lsada har bir xonlik saroyida musiqachilar faoliyat ko'rsatgan va ular o'zlaridan keyin qoluvchi shogirdlar tayyorlashgan. Bunga Buxoroda o'n ikki maqomdan SHashmaqomning ajralib chiqishi, Qo'qonda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining paydo bo'lishi va kichik bo'lsada shakllanishi Xorazmda olti yarim maqomning to'liq kamolga etishi xatto yozib olinishi musiqiy ta'limsiz ijobat qilib bo'lmasligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Maktab va madrasalarda esa asosan diniy ta'lim va qisman dunyoviy fanlar jumladan riyoziyot, falakiyot, jug'rofiya kabi fanlar o'qitilganligini (S.Ayniy "Eski maktab" asari) ba'zi manbalardan bilsa bo'ladi.

Rus istilosi (1865-70 yy) davriga kelib dastlabki musiqa to'garaklari (80-yy), so'ngra esa musiqa maktablari (90-yy) pullik bo'lsada ish boshladi. bu maktablar asosan istilochi millat manfaatlarini ko'zlab tashkil qilingan va o'sha tilda o'qitilar edi. Lekin asta sekin 20-asr boshlarida bu maktablarda erli halq bolalari ham o'qiy boshladi. shu davrda ochilgan umumiy o'rta ta'lim beruvchi "Rus tuzem" maktablarida ham boshqa fanlar qatori musiqiy ta'lim ham o'qitilar edi.

Garchand bu maktablar ham ko‘chib kelgan rus millatiga mansub aholi uchun ochilgan bo‘lsada bora-bora ularda ham mahalliy aholi bo‘lmish o‘zbek bolalari ham o‘qiy boshladilar. Bu maktablar O‘zbekistonda ilk o‘rta umumiy ta’limga asos soldi desak xato bo‘lmaydi. Ushbu maktablarda o‘qigan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Zokirjon Xolmuxammad o‘g‘li Furqat, G‘ulom Zafariy va boshqalar 20-asr boshlaridagi ilk o‘zbek ziyolilari bo‘ldilar.

Hama millat eli bizdan sabab bedor maktabdan,
Vale bo‘ldi alar bizdan sabab bedor maktabdan
Bizni ham orzumiz bo‘lsa uyg‘onmoq bu g‘aflatdan,
Tunu-kun bizga ham so‘zlamog‘ darkor maktabdan
Taraqqiyga etarmiz bizlaram begona millatdek
Ikkiyu uch majolis o‘lsa gar afkor maktabdan
Nixon yig‘lab sizga yolg‘us, o‘g‘lonlarim, zinxor
O‘zing gul g‘unchasin har orzu zinhor maktabdan

H.H.Niyoziy

Ular keyingi sho‘rolar davrida o‘zbek madaniyati va adabiyoti rivojlanishi, xususan teatr va musiqa san‘atiga katta xissa qo‘shdilar. H.H.Niyoziy o‘zbek teatr san‘atiga asos soldi. Nixoniy taxallusi bilan ko‘plab she‘rlar yozdi va musiqalar bastaladi. SHoir Furqat esa ko‘plab she‘r va g‘azallar yozdi va o‘zbek adabiyotida o‘ziga munosib o‘rin xozirladi. G‘ulom Zafariy esa, milliy kuy va qo‘shiqlarni, folklor asarlarni to‘plab nota yozuviga tushirdi hamda chop etish ishlarida jonbozlik ko‘rsatdi.

Dastlab mamlakatning poytaxti Samarqandda, so‘ngra Toshkent, Andijon, Farg‘ona shaharlarida (keyinroq Buxoro shahrida) ochilgan maktablar 30-yillarga kelib Respublikaning chekka xududlarida ham tashkil qilindi. 1918 yilda Toshkent shahrida halq konservatoriyasining ochilishi, 1927 yilda Samarqandda oliy san‘at institutining ochilish mamlakatda musiqiy ta’lim taraqqiyotiga katta xissa qo‘shdi.

Endilikda Toshkent shahrida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Respublika madaniyat va san‘at instituti, Nizomiy nomli Toshkent Davlat

pedagogika universiteti, viloyatlardagi universitet va institutlar musiqa va san'at kollejlari maxsus musiqa litseylari, ko'plab musiqa va san'at maktablari faoliyat ko'rsatib yoshlarning musiqa ilmi uning nazariy va amaliy tamoyillarini o'rganishlari uchun sharoit yaratib bermoqda.

O'tgan asrning 30-yillarida mamlakatimiz maktablari va musiqiy ta'lim beruvchi o'quv dargog'larida V.A.Uspenskiy, N.K.Krupskaya va Makarenkolarning o'sha davr uchun ilg'or ish tajribalari dars o'tish uchun joriy qilingan edi. Lekin, 20-asrning 80-yillariga kelib, bu ish tajribalar eskirib kerakli samarani bermay qoldi. CHunki, bu davrga kelib dunyodagi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy tuzumlar o'rtasida rivojlanishda raqobat yuzaga kelgan edi. Natijada ishlab-chiqarish nixoyatda jadallashib ketdi va ta'lim soxasi unga kadrlar etkazib berishda orqada qola boshladi. bu esa ta'lim tizimi ishin isloh qilishga sabab bo'ldi.

SHu sababli bu davrda yana bir qator pedagoglar (Omonashvali, Lisenko, D.B kobalevskiy va boshqalar) o'zlarining ilg'or, zamonaviy ish tajribalari bilan maydonga chiqdilar. Bular orasida musiqiy ta'lim soxasida o'zining ilg'or ish tajribasini ommalashtirgan Dmitriy Borisovich Kobalevskiy bo'ldi. Uning ish tajribalarimamlakatda musiqiy ta'lim berish va uning samaradorligida katta o'zgarishlar yasadi. Uning ish tajribasi bo'yicha umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musia darslari sinflar bo'yicha yagona mavzuga bo'ysundirildi. Ya'ni har bir infning yillik mavzusi va shu mavzu mazmunini yorituvchi choraklik, undan kelib chiqqan holda dars mavzusi bo'lishi nazarda tutiladi. Bu ish tajriba xozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Musiqa fanlarini o'qitishga qo'yilgan DTS talablari va shu asosda ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dastruiga ham Kobalevskiy ish tajribasi asos qilib olindi.

2.2. O'quvchilarni milliy musiqa madaniyatimiz bilan tanishtirish orqali ularni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash.

Mustaqillik halqimizning umuminsoniy milliy madaniy qadriyatlarini o'rganishga keng yo'l ochdi. Natijada milliy madaniy qadriyatlar tizimida muxim voqeaga ega bo'lgan halq musiqa ijodiyotini ta'lim tarbiya jarayoniga keng tadbqiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi. SHuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim tarbiya, ilm-fan, kasb xunar o'rganish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshladi. busiz jamiyatimizninng biron-bir sohasini o'zgartirishga kirishib bo'lmasdi. Islohotlarning taqdiri va samarasi birinchi navbatda kadrlarning saviyasiga ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog'liq javob berishiga taqalib qolar edi.

Ushbu muammolarni echish uchun ta'limdavgi yuzakichilikdan voz kechishi, har bir soha, har bir fanni zamon talabi darajasida aniq, ravon, tushunarli tarzda o'qitish, buning uchun esa, ta'lim berishdagi ilg'or ish tajribalaridan, dars o'tishning samarali metodlaridan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mahorat bilan dars o'tadigan o'qituvchi kadrlar zarur. Har bir soha, har bir fan bo'yicha dars beruvchi o'qituvchi o'z fanini mukammal bilishi, uni yosh avlodga o'rgatish uchun bo'ladigan barcha qiyinchilik va muammolarga bardoshli bo'lishi, chigaliiklarni oqilona hal qilishi lozim.

Ma'naviy barkamol inson bo'lish nafaqat bugungi kunda mavjud bo'lgan go'zallik nashidasidan bahramand bo'lishni, balki insoniyatning tarixiy taraqqiyot davrlari natijasida to'planib kelingan nodir qadriyatlarimizdan: milliy madaniy boyliklarimiz, jumladan musiqiy meroslarimizdan ham xabardor bo'lishni, ona yurtimizning asriy an'analriga sodiq bo'lishini anglash, ularni o'rganib va o'zlashtirib borishni taqozo etadi. Mana shunday qadriyatlar tizimida milliy musiqiy merosimiz milliy qadriyatimiz sifatida alohida ahamiyatga molikdir. Zero halqimizning musiqa merosida hozirgi zamon

sharoitida, xususan ta'lim tizimi jarayonida foydalanish yosh avlodimiz ma'naviy madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qadrlidir.

SHarq mutafakkirlari har tomonlama mukammal bo'lgan inson haqida ya'ni insonning eng yuksak kamolotga erishganlik xolati haqida ko'plab fikrlar bildirganlar.

“Insoniy vujuddan maqsad- eng oliy baxt saodatga erishishdir. Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z-o'ziga bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbar muhtojli tug'iladi.”

Abu Nasr al-Farobiy.

Xususan Sayid Abdulkarim Geloniyning fikricha haq taolo o'z ismi va sifatlarini faqat komil inson ko'rinishida namoyon qiladi. SHayx Aziziddin Nasafiy inson kamolotida to'rt muxim jixat asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha “komil inson shunday insondirki, unda qo'yidagi to'rt narsa kamolga etgan bo'lsin; yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshiahloq va maorif”. Zero ma'naviy madaniyatli inson shu to'rt xislatni o'zaro mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Buyuk shoir va donishmand hazrat Alisher Navoiy o'zining “Nasoimul Muxabbat” nomli asarida ma'naviyatli insonni ta'riflar ekan, uning xislatlarida qo'yidagi sifatlar mavjud bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Tovba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan rizq topib kun o'tkazish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va hokazo. YUqorida keltirilgan ta'limotlar bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini zarracha bo'lsada yo'qotgan emas, ayniqsa bu jixatlar va fazilatlar musiqiy ta'lim-tarbiya sohasida alohida e'tiborga molik bo'lgan omillardir. Zero, komil inson haqida bundayta'riflar ma'naviyatli va madaniyatli insonga xos sifatlarni o'zida to'liq mujassamlashtirgandir. SHu boisdan ham ma'naviy-ahloqiy madaniyatga ta'rif berishda “Komil inson” iborasining ekvivalenti, shakli sifatida foydalanish mumkin v bu borada keskin farq qiluvchi fikr mavjud emas.

Komillik ta'lim-tarbiyaning maxsumi sifatida inson fe'l-atvorida zoxir biladigan sifatlar shu jumladan ma'naviy sifatlardir. Bu sifatarni shakllantirishda barcha mavjud vositalardan foydalanish har qanday tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismidir. SHu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, musiqa ta'limi va tarbiyasi inson ruxistiga kuchli ta'sir ko'rsata oluvchi va insonni tarbiyalab kamolga etishtira oluvchi kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqaning bunday ta'sirchan kuchi, tarbiyaviy xususiyatlari juda qadimdan olimlarning shu jumladan sharq allomalarining e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Musiqa haqida qimmatli asarlar yaratgan qomusiy olimlar Ishoq al-Qindiy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Safiuddin Urmaviy, Zaynulobiddin Xusayniy, Vojid Alixon, Darveshali CHangiy, shuningdek o'tgan asrlarda yashab ijod qilgan musiqashunos olimlar Abdurauf Fitrat, H.H.Niyoziy, YUnus Rajabiy ,Ishoq Rajabiy va boshqalar musiqaning betakror tarbiya vositasi ekanligi haqida fikr bildirishgan va bu fikrlar qanday ibora bilan ataladigan qat'iy nazar ma'naviy madaniyatning pedagogik asoslari poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Arab falsafasining asoschilaridan biri, musiqa haqida o'nga yaqin risolalar yaratgan buyuk qomusiy olim Ishoq al-Qindiy (800-866 yy) musiqani matematika faniga oid fanlar qatoriga kiritgan va tovushlar garmoniyasiga katta o'rin berib, o'z asarlarida ularni sharhlagan. U shunday deb yozadi: "Garmoniya hamma joyda uchraydi ko'proq tovushlarda koinot tuzilishida va inson qalbida mavjud". Uning fikriga ko'ra musiqa faqat inson kayfiyatini o'zgartiribgina qolmasdan uning ruxiy olamiga va uning tarbiyasiga ham sezilarli ta'sir o'tkazuvchi qudratga ega. Allomaning inson ruhiyatiga musiqiy ta'sir o'tkazish to'g'risida bildirgan fikr muloxazalarini ilmiy jixatdan chuqur o'rganish, taxlil qilish musiqa pedagogikasiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirishi tabiiydir. Bundan tashqari Ishoq al Qindiy musiqa ohangi, xilma-xil ranglar va nafis hidlar o'rtasida o'ziga xos bog'liqlik borligi hamda bu uch vosita inson tarbiyasiga ham samarali ta'sir qilishi mumkinligi to'g'risida yozadi.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr al-Farobi (873-950 yy) o‘zining musiqa to‘g‘risidagi asarlarida musiqaning (Allomaning 170 dan ortiq falsafa, mantiq, matematika va boshqa sohalarda asarlari bor) bo‘lib, shundan 5 ta asari bevosita musiqa ilmiga bag‘ishlangan asar inson kamolotidagi o‘rniga alog‘ida to‘xtaladi. U musiqiy ta’sirni uch guruxga ajratib birinchidan ayrim musiqa asarlari kishiga xuzur xalovat bag‘ishlaydi, ikkinchi turi esa inson xis-hayajonini junbushga keltiradi va tushkun kayfiyatni ko‘taradi, uchinchi turi insonni chuqur fikrlashga tafakkur yuritishga undaydi deb yozadi.

Ma’lumki, musiqaning inson ruxiyatiga bo‘lgan bunday ta’siri natijasida u hayotga faol qaraydigan, yaxshi va yomonning farqini xis qiladigan “Ma’anviy madaniyatning zaruriy shart-sharoitlarini, ya’ni uning pedagogik asoslarini talqin qila oladigan bo‘ladi.” Farobiy musiqaning rivojlanish bosqichlarini, uning inson ruxiga u yoki bu xolatda ta’sir qilishini, u insonga ma’naviy ozuqa berib, insonni yaxshi ishlarga ruxlantirishini, xursandchilik va qayg‘uda odamga hamdam bo‘la olishini va insonni katta ishlarni amalga oshirish uchun chorlay olishini bashorat qilgan.

Jumladan u o‘zining “Ixxa ul-ulum” nomli asarida bu ilm shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotganlar xulqini tartibga keltiradi, mukammal bo‘lmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lganlar xulqini muvozanatda saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo‘lsa, ruh ham so‘ladi, tana to‘siqqa uchrasa ruh xam to‘siqqa uchraydi. SHuning uchun ovozlarning ta’siri bilan ruxni sog‘aytirish yordamida tana sog‘aytiriladi, rux esa o‘z kuchlarining tartibga solinish va o‘z substansiyasiga moslashtirilish orqali sog‘aytiriladi, deb yozgan.

SHarq allomalarining hammasi ham musiqaning inson ma’naviyatli, ahloqi va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liqligi mavjudligini hamda san’atkor ahli o‘sha madaniyatli bo‘lishi, hulq-odobda boshqalarga o‘rnak bo‘lishi lozimligi haqida fikr bildirganlar.

Musiqaning inson ruxiyatiga ham ibratli ta’siri to‘g‘risida Kaykovusning Qobusnoma asarida ham ibratli fikr muloxazalar bildirilgan bo‘lib, jumladan

“Ey farzand, agar sen mutrib (sozanda) bo‘lsang va bir majlisda” o‘ltursang, majlis ahliga qarag‘il, agar eshitguvchi qizil yuzlik va mosh-birinch (guruch) soqlilik bo‘lsa, payvas (eng ingichka nozik tovush) zer (tutash uzluksiz) tor birli cherg‘il; agar sariq yuzlik bo‘lsa bo‘sh tor birla cherg‘il, agar qora yuzlik bo‘lsa naxif (ozg‘in) va savdoyi bo‘lsa, ko‘proq uch tor bila chertg‘il, agar oq semiz va martub (rutubatli, ho‘l, nam) bo‘lsa, ko‘proq bam (yo‘g‘on tovush) bila chertg‘il nedinkim bu rudni (chalg‘u sozi nomi) odamning to‘rt ta‘bi uchun muhayyo qilmishlar deyilgan.

SHuningdek buyuk alloma Abu Ali ibn Sino ham Farobiy singari musiqa ilmini matematika bo‘limiga kiritadi va kuy yoki kompozitsiya yaratish uchun tovushlar xususiyatini o‘rganishga muxim ahamiyat beradi. U tovushlar tabiatini o‘rgana turib, ularning kelib chiqish mexanizmini ochib berishga xarakat qiladi va har qanday tovush cholg‘u ijrochiligi va qo‘shiqchilik san‘ati talablari asosida namoyon bo‘lishini uqtiradi. Tovushning tabiiy xususiyatlari ayni paytda inson faoliyatiga xamoxangdir, deydi olim.

Ibn Sinoning musiqa ilmiga bag‘ishlab yozgan barcha asarlari, jumladan “Kitob ash-shifo” (SHifo kitobi), “Risolai fil-musiqa” (musiqa haqida risola), “Musiqa san‘atiga kirish”, “Atributlar haqida kitob”, “Musiqa haqida bilimlar to‘plami”, asarlarigarchi musiqaning nazariy ilmi, tovushlar xususiyati, ritm kabilar to‘g‘risida baxs etsada u o‘z asarlarining asosiy mazmunini musiqaning shifobaxsh xususiyatlarini ochib berishga qaratgan. SHuningdek u o‘z asarlarida cholg‘u sozlarini uch toifaga ya‘ni torli, puflama va urma cholg‘ular toifasiga bo‘lgan.

Barchamizga ayonki inson qalbiga yo‘l avvalo ta‘lim-tarbiyadan boshlanadi. SHuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz bizga qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot o‘qituvchi va murabbiylarning mehnatini, biz uchun chekkan zaxmatini xurmat bilan esga olamiz.

Muxtasar aytganda, maktab degan dargoxning inson va jamiyat taraqqiyotidagi xissasi va ta‘sirini nafaqat yoshlarimiz, balki butun halqimiz

kelajagini xal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. CHindan ham o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg'oq qalblarga ezgulik yog'dusinibaxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatan ham hayot maktabini beradigan mo'qtabar zotdir.

Ma'naviy barkamol shaxsning badiiy estetik tarbiyasida insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir vosita, bu adabiyotdir. Adabiyot o'z tarixiy rivojlanish jarayonida hamma vaqt musiqiy tarbiya bilan birgalikda inson ma'naviy ehtiyojlari uchun xizmat qilib keldi. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruxining muxandislari deb ta'riflanishi bejiz emas. Adabiyot so'z san'ati azaldan halq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib kelgan. Ulug' adibimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa millat yashaydi. Adabiyot bilan musiqa san'ati qondosh egizak, ular misoli bir qushning ikki qanoti kabidir. Qush qanotsiz ucha olmaganidek, ma'naviy kamolotga ham bu ikki vosita, so'z va musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Rivojlangan jamiyat fuqarosi bo'lmish har tomonlama etuk, barkamol shaxsning badiiy estetik tarbiyasida bu ikki omilning roli beqiyos kattadir.

Estetika esa bu go'zallik demakdir. Insonning go'zallikni idrok etishi va uni yarata olishi o'z hayoti va ma'naviy olamini go'zallashtirish-bu shaxs estetikasi xisoblanadi. Mana shu go'zalliknibadiiy obrazlar orqali ifodalash san'ati badiiy estetika deyiladi. Adabiyot bunday go'zallikni inson ongiga so'z san'ati vositasi orqali singdirsa, musiqa san'ati bunday go'zallikni tovushlar ya'ni musiqiy oxanglar orqali etkazib beradi.

Bu o'rinda ya'ni insonga badiiy estetik go'zallikni etkazib berishda adabiyot va musiqa san'atiga tasviriy san'at, teatr va kino san'ati yaqindan yordam beradi. SHuningdek insonning badiiy estetik kamolotida ommaviy axborot vositalari, jumladan radio va televidenie orqali berilayotgan eshittiruv va ko'rsatuvlarning ham xizmati beqiyos kattadir.

Musiqashunos olim Abdurauf Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli asarida Alisher Navoiyning “Haft manzar” etti ko‘rinish nomli dostonidan qo‘yidagi parchani keltirib o‘tgan:

CHun duo qildi, dedi farzona
Ki, de o‘z ko‘rganimizdin afsona
Menki, tushmish bu yon guzar menga
Mulki Xorazm erur diyor menga

San’atim anda soz chalmoq ishi
Qilmayin men kabi ishimni kishi
Ilmi advor, fani musiqiy
Mendin ul ilm bo‘ldi tahqiqiy¹

Yuqoridagi misralar Alisher Navoiy yashagan davrlarda ham Xorazm musiqa madaniyati yuksak saviyada bo‘lganligidan dalolat beradi.

Halq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo‘lishining eng muxim sharti uni bolalikdan o‘qitish va tarbiyalashdir, deb xisoblanadi. O‘qitish esa ma’lum qonuniyatlarga bo‘ysunadi va umumfalsafiy metodoligyaiga muvofiq bu qonuniyatlar ta’lim jarayoni bilan ancha kengroq bo‘lgan ijtimoiy jarayonlar o‘rtasidagi umumiy, muxim aloqalardan shuningdek ta’limning alohida komponentlari, ya’ni uning maqsadi, mazmuni shakllari, metodlari va vositalari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlardan iboratdir. Ta’lim jarayonining natijasi ba’zan faqat o‘quvchilarning ma’lum bilimlar va ko‘nikmalar tizimini o‘zlashtirishdan iborat bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zero, ta’lim jarayoni murakkab va ko‘p qirrali jarayondir.

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatni shakllantirishga, milliy g‘urur va vatnparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga ijodiy maxorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlik fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu fan umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan

¹ A.Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi Toshkent 1993 yil 49 bet.

barcha o'quv predmetlari bilan uzviy bog'langandir. Ayniqsa, o'qitilayotgan mana shunday predmetlarni o'quvchilarning o'zlashtirib olishida musiqa vosita sifatida yordam beradi.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarini halqimizning milliy cholg'u sozlari jo'rligida tashkil qilish bolalarnig o'quv dasturini tushunishi, fikrlashi, o'zlashtirishi va shu asosda ma'naviy juda ham ahamiyatlidir. Zero halqimizda "yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal" degan naql bejiz aytilmagan. O'quvchilarga musiqiy ta'limda saboq berish, o'qituvchidan chuqur musiqiy bilim, yuksak ijrochilik maxoratini talab qiladi. Bu fanni milliy cholg'ularimiz yordamida o'qitish, darsda ular to'g'risida, ya'ni yasalishi, ijro etishi uslublari tovush xosil qilish xususiyatlari hamda ularni ijro etib nom chiqargan sozandalar ma'lumotlar berish, bu cholg'ularda kuylar va qo'shiqlar tinglashi, ular to'g'risida suxbatlar o'tkazish o'quvchilarda milliy cholg'ularimizga nisbatan mexr uyg'otish va ularni o'rganishga ishtiyoq uyg'otish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Lekin, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati darslarini milliy cholg'u sozlarimiz vositasida olib borish ishini Davlta ta'lim standartlari talab qilgan darajada olib borish mustaqilligimiz dastlabki yillaridan to hozirgi davrgacha xal etilishi qiyin bo'lgan muammolar girbobiga tushib qolgan. Mamlakatimiz raxbariyati va shu ishga mutassaddi bo'lgan shaxslar faol xarakati bilan ayrim muammolar bir oz bo'lsada hal qilindi. Bunga biz umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarini o'qitish uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasida ishlar bir oz bo'lsada olg'a siljiganligini, maktablarimizda o'qitishning texnika vositalari soni ko'payganligini va sifati yaxshilanayotganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Shunday bo'lsada, hali ham qilinishini kutayotgan muammolar ham bor.

1. Milliy cholg'u sozlarimiz turlari, ularnig kelib chiqish tarixi, tuzilishi, diapazoni, tovush xosil qilish xususiyati va ijro etish uslublari to'g'risida batafsil ma'lumotlar beradigan adabiyotlar tanqisligi.

2. Milliy cholgʻu sozlarimizni yasash va ishlab chiqarishning hozirgi zamon talabi darajasida emasligi, ular mavjud cholgʻu sozlarga boʻlgan ehtiyojning maʼlum ozgina qismini qondirishgagina qodir ekanligi.

3. Mavjud cholgʻu sozlarini taʼmirlash, yaroqsizlarini xisobdan chiqarish ishlarini olib boradigan maxsus ustaxonalarining yoʻqligi, yakka ravishda ish olib boradigan kasanachi ustalari bu ishni etarli darajada uddalay olmasligi. Masalan: Sobiq tuzum davrida chiqarilgan “Klub ishi” nomli kitobida koʻrsatilishicha cholgʻu sozlaridan foydalanish muddati chegaralangan boʻlib, muddati toʻlgach uni xisobdan chiqarish mumkin edi.

Bunga, rubob 2 yil, dutor 2 yil, gʻijjak 3 yil, chang 3 yil, nay 2 yil, tanbur 2 yil, doira 6 oy va xakozo deb koʻrsatilgan. Yaroqsiz cholgʻu sozlarini maktab inventorlari roʻyxatidan chiqarish, imkoni boricha ularni taʼmirlash, yaroqsizlarning oʻrniga yangi cholgʻu sozlar bilan taʼminlash muammoni hal qilish yoʻli hisoblanadi.

4. Cholgʻu sozlarini saqlash va undan extiyotkorlik bilan foydalanish. Maʼlumki, har bir maktabda musiqa fanlarini oʻqitish uchun xona ajratilishi, cholgʻu sozlari shu xonada saqlanishi va musiqa fani oʻqituvchisining nazoratida boʻlishi lozim. Ularni saqlash chogʻida nom tegmasligi, ularning yogʻoch qismlari tob eyishidan, metal qismlarining esa zanglashidan, teri qismlarining salqib qolishidan, extiyotsizlik natijasida tushib ketishi va sinishidan, qizdiriladigan cholgʻu sozlarining meʼyoridan ortiq qizib ketishi natijasida ishdan chiqishidan saqlash kabi ishlar barcha maktablarda toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmaganligi.

5. Umumtaʼlim maktablari musiqa fani oʻqituvchisining ixtisosligi va maʼlumot darajasi hali toʻliq hal etilmaganligi. Bunga Respublikamiz umumtaʼlim maktablari toʻliq oliy maʼlumotli mutaxassis kadrlar bilan taʼminlab boʻlinmaganligi, maktablarda ishlayotgan oliy maʼlumotli kadrlarning barchasi ixtisosligi turlicha boʻlib, hozirgi zamon DTS talablari darajasida dars oʻtish uchun ular egallagan ixtisoslik toʻgʻri kelmasligi. Buning esa turli sabablari boʻlib, birinchidan ushbu talablar boʻyicha dars oʻta olish uchun pedagogika

institutlari va universitetlarini tugatgan mutaxassis kadarlar zarur. CHunki bu o'quv dargohlarining o'quv dasturida mana shu narsa ko'zda tutilgan bo'lib kadrlar keng profil bo'yicha, ya'ni ham milliy, ham akademik ijro uslublari bo'yicha maxsus taxsil oladilar. Boshqa oliy o'quv yurtini tugatgan mutaxassislar ma'lum bir yo'nalish bo'yicha taxsil oladi va qolgan yo'nalishlar bo'yicha etarli bilimga ega bo'lmaydi. Fikrimizni asoslash uchun qo'yidagi misolni keltirishimiz mumkin: O'zbekiston Davlat konservatoriyasini xor dirijyorligi ixtisosligi bo'yicha tugatgan mutaxassis xor turlari va xor san'atining barcha sir sinoatlarini a'lo darajada biladi deylik. Lekin ular cholg'u ijrochiligi ularning orkestr, yoki ansambl turlari, ayniqsa milliy mumtoz asarlarimiz (qo'shiqchilik, cholg'u ijrochiligi va raqs san'ati) to'g'risida etarli bilimga ega bo'lmaydilar, chunki ular o'qituvchilikdan ko'ra ijrochilik maxoratiga ko'proq ega bo'ladilar. Bu esa umumta'lim maktablari musiqa fanlarini DTS talablari darajasida o'qitish ishiga to'g'ri kelmaydi.

Musiqiy fanlarni o'qitishda milliy cholg'u sozlarimizdan foydalanish musiqa fani o'qituvchilarining cholg'u sozlarining barcha turlaridan ma'lum darajada bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini bu cholg'ular tuzilishi,sozlanishi, ijro etish uslubi, diapazoni hamda tovush xosil qilish xususiyatlarini bilshi, yuqori saviyada bo'lmasada ijro eta olishi, shulardan birini esa mukammal bilishi va ijro etishi lozim. CHunki, o'qituvchi o'zi mukammal bilgan chol0u sozi jo'rligida o'quv reja hamda dasturida ko'rsatilgan qo'shiqlarni bolalarga o'rgatishi zarur. Bundan tashqari o'qituvchi ushbu cholg'u sozlarining mohir ijrochilari bilan tanishtirish, ular ijro etgan musiqiy asarlardan namunalar tinglatish uchun maktablarda kerakli texnika vositalari va fonotika bo'lishi o'qituvchi ularni ishlata olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati cholg'u sozlari yordamida tashkil qilish ishida muammolar anchagina bo'lib, ular o'z echimini kutmoqda.

2.3.Rekonstruksiya qilingan cholg‘u sozlarimizni o‘quvchilarga o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘rta Osiy Rossiya tomonidan bosib olingach, mustamlakachi ma’muriyat o‘zlarining siyosiy maqsadlarini ko‘zlab, yurtimizga rus madaniyatini jadallik bilan kiritib boshladi. bu tadbir esa rus xukumatining maxsus ijtimoiy-siyosiy buyurtmasi edi. O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonga kirib kelgan dastlabki rus musiqasi puflama cholg‘u sozlaridan tashkil topgan orkestrda ijro etiladigan musiqalar edi. Bu orkestrlar repertuaridan taniqli operalardan uvertyuralar, Betxoven, Mendelson kabi Evropa kompozitorlari simfoniylarining ayrim qismlari, har xil marshlar, raqslar va valsalar bor edi. 19-asr 80-yillariga kelib ularning repertuariga o‘zbek milliy kuylari ham kiritilgan boshladi. Bular mahalliy kopelmeysterlar tomonidan qayta ishlangan kuylar edi.

1884 yil Toshkentda musiqa jamiyatining ochilishi o‘lkamizda rus va Evropa musiqa madaniyatining, uni o‘qitish uchun ta’lim tizimining paydo bo‘lishida poydevor bo‘lib xizmat qildi desak xato bo‘lmaydi. To‘g‘ri bu jamiyatni ochishdan asosan mustamlakachi millat manfaati dastlab ko‘zlangan bo‘lsada, keyinchalik uning faoliyati umumlasha boshladi. Ya’ni, mahalliy aholi farzandlari ham bu jamiyat tashkil etgan musiqiy tadbirlarda ishtirok etib boshladi va ular tashabbusi bilan tashkil qilingan musiqa to‘garaklari, maktablarida taxsil olib boshladilar.

SHunday qilib 19- asr oxirlarida tashkil qilingan musiqa jamiyati o‘lkamizda musiqa san’atining rus usul va yo‘llarining jadal rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Turli to‘garak, uyushma, klublar tashkil etilib, ularda asosan rus va Evropa san’ati targ‘ibotga e’tibor berildi. ayni paytda ularning mahalliy aholi tomonidan o‘zlashtirilishiga sun’iy to‘siqlar qo‘yildi. Shu bilan birga, musiqa cholg‘u sozlari turlari yig‘ilib, musiqa asarlarimiz nota yozuviga yozib olinib boshladi. Shuningdek musiqa haqida har hil maqolalar, ma’lumotlar, bildirishlar e’lon qilindiki, natijada halqlarimiz musiqa madaniyati tarixi, rivojlanishi, o‘sha davrdagi xolati to‘g‘risida umumlashma xulosalarga qilishimiz imkoniyati tug‘ildi.

Tarixiy xolislik tamoyiliga asosan tan olishimiz lozimki, o'sha davrda N.N.Mironov, A.F.Eyxgorn, V.V.Leysek, N.B.Karieva, T.N.Verbovskiy, YU.A.Shefferning va V.I.Mixaleklar o'z faoliyatlari davrida o'zbek musiqasi tarixini, uning xolati va o'sha davrdagi muammolarini ilmiy jixatdan tahlil etishga xarakat qildilar.

O'zbekistonda birinchi teatr, ya'ni o'zbek milliy teatri 1914 yilnig 27 fevralida ochildi. Unga jadidchilik harakati sardorlari Munavvar Qori, Ubaydullaxo'ja Asadullaev, Nizomiddin Xo'jaevlar rahbarlik qildilar va birinchi bo'lib Mahmudxo'ja Bexbudiyning "Padarkush" pesasi namoyish qilindi.

O'tgan asrimizning 20-yillariga kelib o'zbek halqi musiqiy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Bu esa ma'lum darajad mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq edi. CHunonchi, shu tufayli o'lkamizga Evropacha musiqa sozlari (simfonik orkestr, damli va urma zarbli cholg'ular orkestrlari, ularning cholg'u turlari, fortepiano, do'mbira) kirib keldi. Xorazmga esa Rossiyadan garmonika kirib keldi. Ayni paytda o'zbek halq cholg'u sozlari ijrochiligida ham ansambl va boshqa ijrochilik shakllari paydo bo'la boshladi. SHuningdek cholg'u sozlarining ijrochiligi sohasida taniqli bo'lgan sozandalar paydo bo'la boshladi.

Asrning 20-yillarida tashkil qilingan xalq maorifi komissarligining qoshidagi musiqa bo'limi tashabbusi bilan o'lkamizda musiqiy ta'lim yagona boshqaruvga birlashtirildi va Evropa nota yozuvini o'rganish hamda shu asosda cholg'u sozlarida Epropa va milliy asarlarini ijro etish zaruriyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari milliy cholg'u sozlarimiz orasida orkestr ijrochiligi, uchun zarur bo'lgan eng yuqori chastotada tovush beruvchi hamda eng past chastotada tovush beruvchi cholg'u sozlar yaratishga extiyoj tug'ildi. Chunki, o'zbek halqi musiqa madaniyati qo'shiqchilik va cholg'u ijrochiligining yakka ovozlik sharqona uslubda asrlar davomida rivojlanib kelgan va ko'p ovozlilik bizning milliy ijro uslubimizga xos emas edi. Shu sababli cholg'u sozlarimiz tovush xosil qilish xususiyatidan yakka ovozli (mono) lik uslubiga mos, inson ovozig a hamohang tovush berish xususiyatiga ega. Bundan tashqari cholg'u sozlarimiz

orasida rubob, dutor, tanbur kabi cholg'ular pardasi diatonik uslubda terilgan bo'lib, ijro etiladigan har bir asar tonalligiga moslab sozlanar edi. Bunday asarlarni xoxlagan pardada ijro etish imkoniyati yo'q edi va uning pardalarini xromatik ravishda qayta terib chiqishga extiyoj tug'ildi. Shu sababli asrning 30-yillariga kelib o'zbek milliy cholg'u sozlarini zamonaviy ijroga moslashtirish, ya'ni qayta rekonstruksiya qilishga zarurat sezilib qoldi. Mana shu zaruriyat sababli Toshkent Davlat Konservatoriyasi professori A.I.Petrosyans boshchilik qilsada guruxga etakchi cholg'u ijrochilari SHoolim SHoumarov, Matyoqub Xarratov, usta Umar Zufarov, Ikrom Akbarovblar ham jalb etildi va cholg'u ijrochiligidagi ijro maxorati qulayliklar yuzasidan o'zlarining qimmatil maslaxatlarini berdilar. Rekonstruksiya ishlari natijasida milliy cholg'ular tuzilishi, yasaliş shakllari xamda grif (dasta) dagi pardalar joylashuvida o'zgarishlar qilindi, ya'ni ayrim cholg'u sozlari torlari ipak torlardan po'lat simlarga, dastalardagi pardalar ichakning quritib bog'langan yog'ochdan yasalgan pardalarga o'zgartirildi va xar 0,5 tonga bir parda qo'yilib, xromatik xolatga (parda tuzilishining xromatik tartibi) keltirilgan. Shuningdek rubob cholg'usining ilgarigi tuzilishidan biroz farq qiluvchi yangi ko'rinishi yaratildi. SHuni aytish kerakki rubob cholg'u sozi qadimda dastasi uzun bo'lib, xuddi dutor kabi qo'l barmoqlari orqali chertib chalingan. Uning bog'lama pardalari garchi diatonik shaklda bog'langan bo'lsada, qo'y, echki kabi xayvonlarnig ingichka ichagini eshib (aylantirib) quritgan xolda, yo'g'on ip xosil qilingan va shu ip bilan bog'lab chiqilgan. Rubobning yuqoridagi bas tori ham aynan shu ichakdan bo'lgan va pastki torlari esa ipakdan bo'lgan. Rubobning pastki torlari restavratsiya natijasida ipak torlardan po'lat simlari almashtirilgach uning dastasi qisqartilib xarraklari va yasaliş shaklida o'zgarish qilingan. Dastlab u qo'l bilan ijro etilgan. Ijro jarayonida barmoqlarni simga ishqalanishi natijasida qo'lda yara va yallig'lanish paydo bo'lavergach, uni mediatr (noxunak) bilan chalish lozimligini bilib, maxsus yog'och yoki plastmassadan yasalgan mediatrlar orqali chalish tavsiya qilindi. Kosa qismi o'yma shakldan qovurg'ali shaklga keltirildi. Bularning barchasi rubob cholg'usi tuzilish, tovush xususiyati

va ijro uslubida tubdan o'zgarishlar xosil qildi. Uning xosil qiladigan tovush quloqqa yoqimli bo'lgan mayin sadodan, aksincha quloqqa keskin eshitiluvchi baland tembrda sado beruvchi sozga aylandi.

Umuman aytganda cholg'u sozlarning restovratsiyadan so'nggi xolati, tovushi chiqarish xususiyati va ko'rinishi jixatidan restovratsiyadan oldingi xolatiga qaraganda yaxshilanish, qulaylanish bo'ldi deb aytish qiyin, balki aksincha cholg'ular oldinig fusunkorligini yo'qotdi, deb aytsak haqiqatga yaqin bo'ladi. Lekin ularni orkestr ijrochiligida, zamonaviy nota yozuvidagi asarlarni ijro etishda ancha qulay bo'lganligini e'tirof etish lozim.

Tovushqatorlardagi bunday o'zgarishlar faqat rubob, dutor va tanbur uchun emas, balki chang sozi tuzilishida ham ro'y berdi. Xullas, urib chalinadigan cholg'u sozlarimizdan tashqari barcha cholg'u sozlar tovushlari xromatik tovush qator uchun moslashtirildi.

1936 yil kompozitor va bastakor To'xtasin Jalilov boshchiligida ijrochilari soni 98 kishidan iborat yirik o'zbek milliy cholg'u orkestri tashkil qilindi. Lekin bu orkestr yakka ovozli bo'lganligi uchun ansambl edi. SHu sababli ko'p ovozli musiqa asarlarini ijro eta oladigan orkestr tuzishga extiyoj tug'ildi. Buning uchun esa orkestrga yuqori chastotali tovush va past chastotali tovush beradigan cholg'ular zarur edi. Chunki oldingi tuzilgan orkestrda uzog'i bilan 2,5-3 aktava diapazonidagi asarlarni ijro eta olish mumkin edi.

Shu sababli cholg'u sozlarining o'ta ingichka va o'ta yo'g'on tovush xosil qiluvchi turlarini yaratish lozim edi. Dastlab usta Umar Zufarov tomonidan "katta g'ijjak" deb ataluvchi soz yaratildi. SHu tariqa g'ijjakning prima, alt, bas, kontrabas kabi turlari yaratildi. Xuddi shunday xolat qo'biz sozida ham yuz berdi va unnig ham prima, alt, bas, kontrabas kabi turlari yaratildi.

Shuningdek rubob cholg'usining ham prima, soprana, alt, afg'on rubobi, dutor cholg'usining ham tenor, prima, sekunda, alt, bas va kontrabas kabi, chang cholg'usining esa, prima, tenor, pikkola, bas va tenor-2 turlari, nay sozining nay, nay pikkola, sibizg'a nay, surnay, qo'shnay, karnay, kabi turlari qayta ko'rib chiqildi va xromatik tovush qatorga moslashtirildi. Endilikda milliy cholg'u

sozlari orkestrining ijrodagi diapazoni 2,5-3 aktavadan 6-chi aktavagacha, ya'ni kontraktava mi tovushidan 4-chi aktava sol tovushiga etkazildi. Bunday tarkibda tuzilgan orkestr ijrosida faqatgina o'zbek milliy cholg'u kuylari emas, balki Evropa kompozitorlari yaratgan va orkestr ijrosi uchun moslashtirilgan asarlarni ham bemalol ijro etish mumkin.

Lekin ommaviy ravishda ishlab chiqarilgan va sifatli materiallardan tayyorlangan bunday cholg'u sozlari bilan nafaqat Evropa musiqa ixlosmandlarini, xatto o'zimizning o'zbek halqi musiqa ixlosmandlarini ham xursand qilib bo'lmaydi.

Rekonstruksiya qilingan cholg'u sozlarini o'rgatish esa an'anaviy yakka tartibda olib borilishi maqsadga muvofiq. Chunki, har bir o'rganuvchining musiqa eshitish qobiliyati (suluxi) va iqtidori turlicha bo'lib, ularni o'rganadigan musiqiy asarlarini tanlashda o'qituvchi mana shu jixatga ya'ni iqtidoriga ahamiyat berishi va shunga mos murakkablikdagi asarlarni tanlashi lozim bo'ladi.

O'rganuvchi o'quvchilar yoshi ulg'aygan sari oldingi asarlarni o'rganishda olgan malakalaridan kelib chiqqan xolda ularni o'rganish uchun beriladigan musiqiy asarlar murakkablashib borishi lozim. Bu erda o'qituvchidan "oddiydan-murakkabga" tomon prinsipiga amal qilish talab qilinadi. O'rganish jarayonida dastlabki yilda asarni sanab chalish yo'li bilan o'rgatish o'quvchi bir oz tajriba to'plaganidan so'ng esa konsermeyster jo'rligida ijro etish, milliy kuylarimizni doira cholg'usi jo'rligida o'rganish boladarning musiqa asari o'lchovi va ritmini xis qilishlari ijro jarayonida asar tezligi, xarakteriva dinamikasiga rioya qilishini o'rganishlari uchun zarur bo'lgan vositadir.

21-asr globallashuv asri bo'lganligi bois tez-tez turli halqlar musiqa asarlarini ijro etish zaruriyati tug'iladi shu sababli milliy cholg'u sozlari orkestrlarining safini yanada kengaytirish, ular ijro etayotgan cholg'u sozlari sifatini yaxshilash xamda ijrochilar texnikasini takomillashtirish davr talabidir.

Umumta'lim maktablari, maktabgacha tarbiya muassasalari va jismoniy nuqsonli bolalar maktab internatlarida bunday rekonstruksiya qilingan cholg'u sozlarni o'rgatish uchun etarli bo'lgan dars soatlari shu maktabalar o'quv rejasida ko'zda tutilgan. SHu sababli bunday maktablarda ushbu cholg'u sozlarini o'rgatish imkoniyati yo'q. Faqat bu maktablarda tashkil qilingan to'garak mashg'ulotlarida ular bilan o'quvchilarni tanishtirish, ayrim cholg'u turlari, jumladan doira, qashqar rubobi, dutor, tanbur kabi cholg'ular, ya'ni rekonstruksiya qilingan cholg'u sozlarining ma'lum bir qismigina ijro etish uslublarini o'quvchilarga o'rgatish mumkin. SHunda ham bunday maktablar sharoitida ushbu cholg'ular ijrochiligi bo'yicha malakali ijrochi etishtirib bo'lmaydi.

CHunki bunday maktablarda berilgan xaftada bir soat musiqa darslarida o'quv dasturida ko'zda tutilgan mavzular o'qitilishi lozim. Maktablarda olib boriladigan.to'garak mashg'ulotlari uchun ajratiladigan o'quv soatlari ham yildan-yilga kamayib bormoqda va bu soatlarda musiqa madaniyati darslarida ko'zda tutilgan mavzulargina o'quvchilar uchun o'zlashtirishi qiyin bo'lgan qismlarini o'rganish hamda maktablarda o'tkaziladigan turli nomdagi bayram musiqiy tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish, bu tadbirlar uchun qo'shiq va raqslar tayyorlash uchun vaqt sarf etilmoqda.

XULOSA

Mavzuni yoritish jarayonida ko‘plab adabiyotlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keldi. Lekin bu adabiyotlarda milliy cholg‘u sozlarimizni rekonstruksiya qilishning beradigan samarasi to‘g‘risidagi bir-biriga qarama-qarshi bildirilgan fikrlar qurshovida qoldik. Ba’zi adabiyotlarda cholg‘u sozlarimizni rekonstruksiya qilishdan ko‘zlangan maqsad milliy cholg‘ularimizning inson ruxiyatiga yaqin bo‘lgan yoqimli va fusunkor tovush xosil qilish xususiyatini yo‘qotish orqali jahon musiqa ixlosmandlari oldida o‘zbek milliy musiqa madaniyati obro‘sinini tushirish va mana biz o‘zbek cholg‘ularini qayta ishlab jahon, ayniqsa Evropa musiqalarini ijro etishga moslashtirdik, deya o‘zlarini ko‘klarga ko‘tarish maqtanish edi deyilsa, boshqa adabiyotlarda milliy cholg‘u sozlarini rekonstruksiya qilish Evropa nota yozuvining O‘zbekistonga kirib kelishiga, u erda xor orkestr, teatr san’ati, ya’ni akademik ijro uslubining shakllanishi va shu orqali globallashuv sari taraqqiyotga yo‘l ochilganligi haqida aytiladi. Masalan: Muallif H.hamidovning “O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi ” nomli asarida qo‘yidagi jummalarga e’tiborimizni qaratildi.

“Oktyabr to‘ntarilishigacha 50 yildan ortiq davom etgan rus mustamlakachiligi hozirgi O‘zbekiston hududida turmushning barcha sohalarida, xususan madaniy mafkuraviy jabhada ham juda keskin, bir-birini qat’iyan inkor etuvchi qator ziddiyatli xolatlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu xolatlar mazmun- moxiyati e’tibori bilan oktyabr to‘ntarishidan so‘ng bolsheviklar va shurolar tuzumi O‘zbekiston hududida amalga oshirgan chora-tadbirlarga xamoxang edi. Boshqacha aytganda 1917 yil Oktyabridan so‘ng bizning xozirgi mamlakatimizda sodir etilgan ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy voqealar shu davrgacha ro‘y bergan voqealar moxiyatini o‘zgartirmasdan, ularni o‘zgacha usullarda davom ettirishdan iborat bo‘ldi. Chor Rossiyasi davrida “chekka o‘lkalar” ga, xususan O‘zbekistonga nisbatan madaniy sohada shakllangan mustamlakachilik munosabatlari bolsheviklar va shurolar tuzumi davrida yanada takomillashdi. Ular 30-yillarning boshlaridan

e'tiboran o'zbek musiqiy asboblarini ovro'pacha usulga moslashtirish shiorini o'rta tashladilar va natijada an'anaviy musiqa sozlarida "modernizatsiya" asosida ular mazmunida salbiy xolatini yuzaga keltirishga intilish yuzaga keldi."

2

Yuqorida keltirilgan jumladan milliy cholg'u sozlarimizni rekonstruksiya qilish orqali milliy musiqa madaniyatimizning keyingi istiqbolini mafkuralashtirish va shu orqali uni har tomonlama kamsitish Evropa va rus musiqa madaniyatining ustunlik jixatlarini ko'rsatish nazarda tutilgan deya xulosaga kelish mumkin.

Lekin har xolda biz o'zimizning milliy cholg'u sozlarimizdan orkestr tuzish va u orqali ko'p ovozli musiqiy asarlarni ijro etish imkoniyatiga ega bo'ldik. Aks xolda biz o'zimiz uchun an'anaviy bo'lgan cholg'u ijrochiligi va qo'shiqchilikda yakka ovozli sharqona uslubda qolaverar edik.

Bundan tashqari mamlakatda ta'lim tizimi shakllanishi va unda barcha barobar o'qish imkoniyati paydo bo'lishi, xususan musiqiy ta'limda nota yozuvining hamda u orqali cholg'u sozlarini tezroq va osonroq o'rganish imkoniyatining tug'ilishini ijobiy baholash lozim.

Garchand mafkuraviy asosda qurilgan bo'lsada, sobiq tuzum davrida mamlakatimiz aholisi yalpi savodxon, jumladan musiqiy ta'lim sohasida ham ko'plab o'quv dargohlari ochilganligi sababli musiqiy ta'lim sohasida savodli bo'lgan sozanda va xonanda lar etishib chiqdiki, hozirgi davrda ular tarbiyalagan farzandlarimiz chet ellarda ham dovruq'i taratmoqda

Rekonstruksiya qilingan cholg'u sozlarimiz haqiqatan ham zamonaviy nota yozuvidagi har qanday millat musiqiy asarlarni ijro etishga mos, lekin ularni sifatli darajada ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan emas.

Bu cholg'u sozlarini o'rgatish umumta'lim maktablari sharoitida amalga oshirib bo'lmaydigan masaladir. Chunki bu maktablarda bu cholg'ularni o'rgatish uchun na dars soati ajratilgan va maktablarimiz na cholg'u sozlari

² H.Hamidov O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. Tosh.O'qituvchi n.1996 yil 120-128 betlar.

bilan ta'minlangan. SHu sababli bunday maktablarda milliy cholg'u sozlaridan orkestr tuzish imkoniyati mavjud emas. Bu ishni faqatgina maxsus musiqa maktablari, litsey yoki kollejlari hamda oliy ta'limning shu yo'nalishida amalga oshirish mumkin.

A.Qodiriy nomli JDPI Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Muzaffarova Sevaraning "Milliy cholg'u sozlarimizning rekonstruksiya qilinishi va ularni o'quvchilarga tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

X U L O S A

O'zbek halqi milliy musiqa madaniyati juda uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bu jarayonda juda ham boy musiqiy meros to'plangan. Mana shu boy musiqamiz merosining ko'lami jixatidan jaxonda oldinig o'rinlarda turamiz. Biz bu meros bilan faxrlansak arziydi. Shu jumladan milliy cholg'u sozlarimiz turlari va ularning tovush xosil qilish xususiyati inson ovozigga uyg'un ekanligi, cholg'u ijrochiligi va qo'shiqchilikdagi ularning inson qalbini sehrlovchi, o'ziga rom qiluvchi xususiyatlari bilan ajdodlarimiz mexrini qozonib kelganligi, ularni moxirilik bilan ijro etgan sozanda va xofizlarimizni el-yurt doim xurmat qilib, e'zozlab kelganligini yozib qoldirilgan tarixiy manbalar orqali bilishimiz mumkin.

Demak, milliy cholg'u sozlarimiz ajdodlarimizning musiqa madaniyatimiz soxasidagi asralar davomida orttirgan bilim va malakalari, tajribalari natijasida takomillashib, mukammalashib, murakkablashib kelgan. U milliy musiqa madaniyatimizning tarkibiy qismi sifatida halqimizning ma'naviy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan.

Ushbu bitiruv malakaviy mavzusi ham milliy cholg'u sozlarimiz va ular bilan o'quvchilarni tanishtirish orqali yosh avlodning ilmiy musiqiy dunyoqarashinikengaytirish hamda ularni har tomonlama etuk, bilimdon, zukko va komil insonlar bo'lib etishlari uchun milliy musiqiy qadriyatlarimizga aylangan cholg'u sozlarimiz bilan ularni tanishtirish va shu cholg'ularni o'rganishga ishtiyoq, hohish uyg'otishni nazarda tutadi.

Mavzuni rejalashtirish jarayonida, albatta bu cholg'u sozlarimiz yaratilish va takomillashish jarayoni tarixiy bosqichlari, ularning halqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rni, cholg'u sozlari turlari, ularni maxorat bilan ijro etgan va halqimiz xotirasida, ardog'ida qolgan mutribi sozandalarni, bu cholg'ularning

saroy kasbiy musiqasi sharoitidagi, maqomlarimiz takomillashuvidagi tutgan oʻrnini, shuningdek milliy cholgʻu sozlarimiz rekonstruksiya qilinishidan koʻzlangan asl maqsadni ochib berish, rekonstruksiya jarayoni va undan keyingi cholgʻu sozlarmiz xolatini xolisona baholash hamda oʻquvchilarga ularni tanishtirishda xolislik maqomida turish, bu oʻzgarish jarayonining musiqiy maaniyatimiz rivojlanishida berayotgan ijobiy va salbiy samarasini koʻrsatib oʻtish orqali oʻquvchilar ilmiy musiqiy dunyoqarashini shakllantirish yoʻllarini ochib berishni maqsad qilgan edik.

Bitiruvchi talaba mavzuni reja boʻyicha yoritib borganligi va rejada koʻzda tutilgan bob va paragraflar boʻyicha atroflicha izlanganligi bitiruv ishi bilan tanishuvchi darhol anglab etishi mumkin.

Ayniqsa bitiruvchining milliy cholgʻularmiz rekonstruksiya qilinishidan aslida sobiq tuzum mutassaddilari boshqa maqsadni koʻzlaganligi, bizning milliy musiqa madaniyatimizni, uning tarkibiy qismlariboʻlgan cholgʻu sozlarmizni kamsitish, oʻzlarining musiqa madaniyati, shu jumladan cholgʻu sozlarini zoʻr berib maqtash va biznig cholgʻu sozlarimizni rekonstruksiya qilish orqali Evropa va rus musiqasini mamlakatda targʻib qilish hamda chet ellarga bu borada erishgan yutuqlarini aytib maqtanish ekanligi toʻgʻrisida dadil fikr yuritganligi maqtovga loyiqdir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikki bob, olti paragraf, xulosa, ishga qilingan iloalar hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

Ushbu bitiruv malakaviy ish reja boʻyicha yozilgan va koʻplab ibratli va erkin fikr-muloxazalar jamlangan ishlar qatorida namunali tarzda yozilgan va ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

JDPI oʻqituvchisi:

Abdurahimov A.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch". T.Ma'naviyat 2008 y.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T.Sharq nashr 1998 yil.
3. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi". T.Sharq nashr.1999 y.
4. I.A.Karimov "Milliy istiqlol g'oyasi. Asosiy tushuncha va tamoyillar". T.O'zbekiston nashr. 2000 y
5. Kaykovus "Qobusnoma" .T. O'qituvchi nashr 2006 y.
6. R.Mavlonova O.To'raeva "Pedagogika" .T. O'qituvchi 2001 y.
7. O'zb.XTB Axborotnoma 6-maxsus son. T.Sharq nashr 1999 y.
8. O'zb.XtB 7-maxsus son. T. SHarq nashr 1999 y.
9. A.Fitrat O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T. 1993 y.
10. O'zb.MUniversiteti Ma'anviy saloxiyat. T. Universitet bos.2009 y.
11. S.H.Yo'ldosheva O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi.T.O'qituvchi nash. 1985 y.
12. H.Hamidov O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. T.O'qituvchi nashr.1996 y.
13. a.Odilov O'zbek halq cholg'ularida ijrochilik tarixi. T.O'qituvchi nashr. 1995 y.
14. M.Rajabiy maqomlar masalasiga doir. T.O'zb.Dav.Badiiy adabiyot nashr. 1963 y.
15. T.E.Salomova O'zbek musiqasi tarixi. T.O'qituvchi 1981 y.
16. O.O.Fayziev musiqa o'qitish metodikasi. T.Navoiy azot bos 1997 y.
17. E.A.Gudkova, A.B.Vasileva "Ashula darsi metodikasi". T.O'qituvchi nashr.1973 y.
18. O'zb.XTB "Umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi konsepsiyasi".T. 1995 y.

- 19.TDPU “Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi”.
T.TDPU ilm.konf.2009 y.
20. R.Tursunov halq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. T.Ma’rifat nashr.2002 y.
21. A.Petrosyan CHolg‘ushunoslik.T.Adab va san’atnashr. 1990 y.
22. F.Halilov “Milliy qadriyatlar va musiqiy tarbiya”. T. Sog‘lomavlod uchun
jurnal aprel-may 1999 y.
23. G‘aroyib topilmalar. T.Pravda vostoka gazetasi 24.09.1967 y.